

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO'LCHILIK FAKULTETI

5140900 – Kasb ta'limi (Zootexniya) yo'nalishi

HATAMOV ASROR XUDOYBERDIYEVICH

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Qoramol go'shti ishlab chiqarishni jadallashtirish yo'llari va mavzuni
o'qitish uslubi”**

Ilmiy rahbar, professor;

Kaxarov.A.K.

**Veterinariya, zootexniya va
qorako'lchilik fakulteti dekani,
dotsent**

_____N.O.Farmonov
“ _____ ” _____2011 yil

**“Zootexniya, hayvonlar genetikasi va
urchitish” kafedrasi mudiri, q.x.f.d.,
professor_____D.Xolmirzayev
“ _____ ” _____2011 yil
№ _____-sonli yig'ilish bayoni**

SAMARQAND – 2011

MUNDARIJA

I. Kirish

II. Adabiyotlar sharxi

III. Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan masalalar asosi va ularni bajarish usullari.

IV. Xususiy tadqiqotlar

V. Mavzuni yechimidan kutilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar.

VI. Mavzuni qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlarda o'qitish uslubi.

VII. Ekologik muammolar, hayot faoliyati va texnika xavfsizligi masalalari.

VIII. Xulosalar

IX. Ishlab chiqarishga amaliy tavsiyalar

X. Internet malumotlari

XI. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

XII. Ilova (Internet malumotlari, slaydlar, jadvallar)

I. Kirish

Mustaqillikka erishganimizga ham 20 yil bo'layapdi. Qadim tarix uchun unchalik katta bo'lmagan muddatda O'zbekiston dunyo hamjamiyati orasida o'zining munosib o'rnini egalladi. Buning sababi, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va siyosiy jabhalarda to'g'ri va olamshumul siyosat olib borayotganligidadir.

Malumki har qanday mamlakatning farovonligi, ravnaqi aholining to'q va to'kin turmush kechirishi, xalq xo'jaligining barcha jabhalarida ishlab chiqarishni tashkil qilishga bog'liq bo'ladi. Istiqloлга erishgan dastlabki kunlarda aynan xalq xo'jaligining barcha soxalarida islohatlar o'rnatildi, to'g'ri ichki va tashqi siyosat olib borildi. Buning natijasida mamlakat har tomonlama barqaror rivojlana boshladi. Xalq xo'jaligining barcha soxalarida o'sish kuzatila boshlandi.

Vatanimizning bosqichma-bosqich barqaror rivojlantirishni ta'minlash bizning oily maqsadimiz. Qishloq ho'jaligidagi islohatlarni chuqurlashtirish fermerlik harakatini qo'llab quvvatlash moddiy va ma'naviy bazani mustaxkamlash, hamda ularga yanada keng yo'l ochib berish, bu borada yanada keng imtiyoz va imkoniyatlar yaratish. Qisqacha qilib aytganda, qishloqda paydo bo'layotgan mulkiy munosabatlarni yani, o'rta sinf vakillarini tadbirkor va ishbiarmonlarning ma'nfatini himoyalash katta ahamiyatga ega.

Tarqqiyot va farovonlik dasturi Prezident Islom Karimovning 2008-yil 26-yanvardagi qaroriga muvofiq "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili davlat dasturi" tasdiqlandi.

Yurtimizda 2009 yil Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili deb e'lon qilinganligi munosabati bilan amalda joriy etilayotgan ushbu dasturdan ko'zlangan maqsad, qarorda qayt etilgandek qishloqning ishlab chiqarish va ijtimoiy idora tuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning agrar sektori samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish ishida qudratli turtki berish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalarini jadal barpo etish, qishloqda avvalo yoshlarni bandligini oshirishni ta'minlash, qishloq axolisi daromadlarini va turmush tarzini yuksaltirish bo'yicha

chora tadbirlarni keng kompleksini amalga oshirishdan iborat. Respublikamizda hukum surgan ana shunday g'oya og'ir va murakkab vaziyatda yurtboshimiz o'z raxbarlik faoliyatining boshidayoq ushbu davlatni ilgari surdi "Bugungi qishloqda o'zining asl qadir qimmatini qaytarmoq zarur. "Qishloq xo'jaligi qaytadan tug'ulishi kerak". Qishloq mehnatkashlarning ko'ngliga ishonch bag'ishlash kerak. O'zbekistonni barcha axolisining farovonligi ularning mehnat imkonoyatlariga bog'liq.

Shu tariqa bundan 20 yil avval istoqlol arafasida yurtimizda mutloqo yangicha yondashuv asosida qishloq hayotining tubdan isloh qilishga dadil kirishildi. Aytish kerakki qishloq xo'jaligi tub o'zgarish tom ma'nodagi, tarixiy isloxat qilmoqda, mulk va mulkiy islohotlar va munosabatlar, masalalar to'g'ri hal qilinib fermerlik harakati yurtimizda keng quloch yoygani misolida yaqqol nomoyon bo'ldi. Bugungi kunda fermer xo'jalikar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asosiy shakliga uning barqaror va samarali rivojlantiradigan kuchga aylandi.

O'tgan davrda qishloq xo'jalik hodimlarini moddiy rag'batlantirish, dexqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik maxsulotlarining xarid narxlarini muntazam oshirib borish, qishloqdagi oilalarning moddiy axvolini yaxshilash borasida ham izchil siyosat olib borildi. Bunga esa Prizedentimiz tomonidan "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" davlat dasturi tasdiqlangani esa xamisha etibor markazimiz va farovonligimiz bunyodkori bo'lgan mehnatkash dexqon qishloq axoli manfaatlarini har tomondan ta'minlashga qaratilgan turli va bosqichma – bosqich islohotlarni yangi bundan ham yuqori bosqichga ko'tarish va samaradorligini yanada yuksaltirish borasidagi ishlarnng izchil davomidir.

Buni biz 2010 yildagi jahon moliyaviy inqirozi bizni Respublikamizning chetlab o'tganligidan ham bilsak bo'ladi. Raqamlarni tahlil etadigan bo'lsak dunyo moliyaviy inqirozi uzoq tarixga ega bo'lgan va dunyoda eng rivojlangan mamlakatlar deb tan olingan davlatlarni ham iqtisodiyotiga salbiy ta'sir korsatdi. Xususan dunyo iqtisodiyotiga ko'rsatgan zarari 9,4 trillion AQSH dollari miqdorida bo'lgan. Bu esa jahon mamlakatlari yalpi ichki maxsulotining 15 foizini tashkil qiladi.

Moliyaviy inqiroz oqibatlari oldini olish va bartaraf etishga qilingan xarajatlar 3,5 trillion AQSH dollariga etgan.

Bu ko'rsatkich Amerika Qo'shma Shtatlarini yalpi ichki maxsulotining 25% demakdir. Huddi shuningdek Buyuk Britaniya 1 trillion, Germaniya 893 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoyani aynan shu maqsadlarga yo'naltirgan. Butun jahonda ayniqsa, yuqorida zikir etilgan rivojlangan davlatlarda moliyaviy inqiroz mehnat qonunlarining buzulishi, fuqorlarning xuquq va manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinmasligi, natijada ishsizlik darajasi keskin oshganligida namoyon bo'lgan. Ushbu davlatlarda aholining farovonligi og'irlashgan, bu esa qashshoqlashuvga sabab bo'lgan.

Jahon moliyaviy inqirozi to'g'risida I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida batafsil malumotlar berilgan va tahlil qilingan. Ushbu asarda davlatimiz rahbari ko'pgina daliliy va har tomonlama isbot qilingan ma'lumotlarni keltirib, moliyaviy inqirozni O'zbekistonni chetlab o'tishiga ta'sir qilgan omillar to'g'risida to'xtalib shunday dedi: "O'zbekiston qabul qilgan o'ziga hos islohat va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyotini o'zini o'zi tartibga soladi degan o'sha jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik".

Qanchalik chuqur o'ylangan va tahlil qilingan fikrlar bildirilganligini anglaymiz.

Shuni alohida takidlash lozimki bizning mamlakatimiz agrar mamlakat hisoblanadi, shuning uchun ham qishloq xo'jaligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaliginig ajralmas tarmog'i bu chorvachilik hisoblanadi, chunki qishloq xo'jaligi ayniqsa uning paxtachilik va g'allachilik sohasi chorvachilikning ko'pgina turlari bilan yaxshi uyg'unlashadi. Yildan yilga qishloq xo'jalik sohasi maxsulotlar yetishtirish hajmi 4-5 % ga oshib kelmoqda, bu ko'rsatkich 2010 ishlab chiqarish yilining yakuni bo'yicha 6,8 % ni tashkil qilgan. Bu esa qishloq

xo'jaligi sohasida to'g'ri va uzoqqa mo'ljallangan siyosiy siyosat yuritilayotgani shuni ko'rsatadi.

Respublikamizda 2001 -2010 yillar ichida qoramollar soni 16,9 % ga, jumladan sigirlar soni 26,4% ga, sut ishlab chiqarish 19,7% ga, go'sht ishlab chiqarish 6,9% ga ko'paydi. Chorvachilik sohasidagi ijobiy natijalar asosan shaxsiy xo'jaliklar xissasiga to'g'ri kelmoqda. Ishlab chiqarish yaxshi tashkil etilganda yani progressiv texnologiyalardan foydalanilganda chorva mollarning maxsuldorligi ko'tarilishi ko'pgina xo'jaliklarda o'z isbotini topgan.

Chorvachilik borasida ham istiqloqlarning dastlabki yillaridayoq iqtisodiy islohatlar o'tkazila boshlandi va shu kungacha ushbu jarayon davom etib va takomillashib kelmoqda. Shunisi etirofliki chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirishni huquqiy asoslari yaratildi. Shunga misol tariqasida 1993 yildagi "Veterinariya to'g'risida" gi , 1995 yildagi "Nasilchilik to'g'risida" gi, 1996 yildagi "Seleksiya to'g'risida" gi davlat qonunlarini, ayniqsa 2006 va 2008 yillarda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 308 va 842 sonli va Vazirlar Maxkamasining o'nga yaqin qarorlarini keltirish mumkin. Shuni qayd qilish kerakki sohani barqaror rivojlantirish borasida Respublika Prezidentining 308 va 842 sonli qarorlari dasturi amal bo'lib kelmoqda.

Yuqorida qayd etilgan xuquqiy hujjatlar chorvachilikning bir tarmog'i hisoblangan qoramolchilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirishga ko'proq taluqlidir. Chunki aholi istemolidagi sutni deyarli barchasi, go'shtni esa 70 % ga yaqini qoramolchilikdan olinadi. Tarmoq shuningdek mustaqillik yillarida barqaror rivojlanib kelmoqda, uning bosh soni har yili 6-10 % ga oshib 2011 yil 1 yanvar holati bo'yicha 9 million boshdan oshib ketgan. Lekin bugungi kunda yetishtirilayotgan chorvachilik maxsulotlari jumladan go'sht va sut aholi extiyoji darajasidan ancha past. Bu to'g'rida I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2010 yil yakunida va 2011 yilda iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor vazifalariga bag'ishlangan majlisda qilgan maruzasida shunday dedi: masalan chorvachilik sohasini oladigan bo'lsak, bu borada ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini takidlash o'rinlidir. Taqqoslash uchun quyidagi bir misolni keltiraman: Daniya va Janubiy Koreyada sut sog'ib olish bo'yicha o'rtacha

ko'rsatkich 8-9,5 ming kg ni Vengriya, Germaniya, Gollandiyada esa 6-7 ming kg ni tashkil qilgan bir paytda bizda keyingi 5 yilda bu raqam 1,7 ming kg darajasida saqlanib qolmoqda".

Bu muammoni hal qilish uchun birinchi navbatda qoramolchilikda ozuqa bazasini ijobiy hal etish, ozuqaning sifati talab darajasiga yetkazish, zot va zotdorlikni yaxshilash buning uchun esa naslchilik va seleksiyani talab darajasida tashkil qilish, maxsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun soha mutaxassislaridan kuchli bilim va malaka talab qilinadi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo'jaligining barcha sohalari uchun shu jumladan chorvachilik sohasi uchun tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxasislarning vazifalari, burchlari ishlab chiqilishga joriy etilishi lozim b'lgan yangi texnologiyalar 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" kabi davlat qonunlarida ko'rsatib o'tilgan.

Chorva mollari kasalliklarining oldini olish, podani yaxshilash va uni to'ldirish, yosh mollarni maqsadga mofiq parvarishlash, hayvonlarni hazm bo'luvchi proteyini bo'lgan ozuqa turlari bilan oziqlantirish choralari ko'rilmogda. Bundan tashqari chorvachilikni rivojlantirish borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisidagi (21 yanvar 2011 yil) maruzasida ham Respublikamizda qishloq xo'jaligi, aynan chorvachilik sohasida qilingan ishlar va kelgusida qilinishi kerak bo'lgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tdilar. Bu o'z navbatida chorvachilikni rivojlantirish zootexniya xizmati faoliyatini yaxshilashda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Prizidentimizning 2011-yilni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili"deb e'lon qilinishining mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes muhitini yaratish imkonini tug'diradi. Hususiy mulkchilikni ustuvorligini yo'naltirishga qaratilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlashga, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berishga kichik biznes subektlarining moliya kridit va homashyo resurslaridan keng foydalanishni ta'minlaydi.

II. Adabiyotlar sharxi.

Ma'lumki butun dunyoda aholini ozq-ovqat muammosi bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni nisbiy yechimi asosan qishloq xo'jalik va uning asosiy tarmog'i bo'lgan chorvachilikni qanchalik darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda aholi farovonligini oshirishda, uning turmush tarzini yaxshilashda o'simliklar va hayvonot dunyosidan olinadigan maxsulotlar muhim o'rin tutadi.

Shuninh uchun ham O'zbekiston Istiqlolga erishgan kunlardan oq xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida shu jumladan chorvachilik sohasida ham keng ko'lamli iqtisodiy islohatlar o'tkazildi va hozirgacha bu islohatlar davom etib kelmoqda. Shuni alohida qayd qilish lozimki mamlakatda agrar soxani yildan yilga kuchli rivojlanishi uchun islohatlar olib borilmoqda. Buning natijasida yildan yilga barcha turdagi hayvonlar bosh soni ko'payib, ularning maxsuldorligi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi chorva mollari bilan olib borilayotgan naslchilik ishlarini oziqlantirish va asrashni takomillashtirishdir.

Lekin shuni qayd qilish lozimki ishlab chiqarilayotgan chorvachilik maxsulotlari aholi extiyoji darajasidan ancha past, hayvonlarni maxsuldorlik bo'yicha genetik potensialidan foydalanish 55 % atrofida bo'lib kelmoqda.

Demak chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlantirish uchun ham to'liq foydalanilmagan imkoniyat mavjud ekan. Shuning uchun ham mamlakatimiz chorvachiligini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar ishga solinmagan, chunki chorva mollaridan nafaqat maxsulot balki tuproqni unumdorligini oshirishda va takomillashtirishda almashtirib bo'maydigan muhim organik o'g'it go'ng ham olinadi.

Chorvachilik yengil sanoat uchun hilma-xil xom ashyo yetishtirib beradi. So'yilgan molning terisi, go'shti, ichki organlari, qon, shoxlari, tuyoqlari va suyaklari ham ishlatiladi. Xususan, so'yilgan molar oshqazonlaridan pepsin va meda shirasi, ichki sekretiya bezlaridan (qalqonsimon, gipofiz, meda osti va boshqalar) inson va hayvonlarga kerakli bo'lgan gormonlar, har xil davolash vositalari hamda qon uni tayyorlanadi.

Suyaklardan tugmalar va mollar ozuqasi sifatida suyak uni ishlanadi. Shuning uchun ham xalq istemol tovarlarining ishlab chiqarilishini ko'paytirish uchun xom ashyo yetkazuvchi soha –chorvachilik yanada rivojlantirish ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga molikdir.

Keyingi yillarda chorvachilik sohasida ko'pgina yangiliklar ro'y berdi. Chorva mollarining ko'pchiligi aholi honadonlarida, fermer xo'jaliklarida asraladigan bo'ldi. Bunday vaziyat o'z navbatida chorva mollarini asrash, oziqlantirish, naslchilik ishlarini olib borish, yangi texnologiyalarni qo'llashga olib keldi. Lekin qanday iqtisodiy munosabat va qanday tizim bo'lishidan qat'iy nazar chorva mollaridan olinadigan asosiy maxsulotlardan biri go'shtdir.

Qoramol go'shti o'zining inson organizmida yengil hazm bo'lishi, energiyasining ko'pligi va boshqa ijobiy xususiyatlari bilan boshqa turga mansub hayvonlarning go'shtidan ajralib turadi. Shuning uchun dunyo bo'yicha qoramol va buzoq go'shti ishlab chiqarish 5,5%, cho'chqa go'shti 10,4%, parranda go'shti esa 27,8%, qo'y go'shti 8,8%, echki go'shti 26,3% va ot go'shti 9,2% ga o'sgan. Oldingidek go'sht muammosini hal etishda chorvachilik birinchi o'rinda bo'lib 25,6% ni tashkil qiladi. Yoki bo'lmasa dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan 232 million 965 ming tonna go'shtni 59 million 630 ming tonnasini qoramol go'shti tashkil qilgan. Dunyo bo'yicha jami qoramollar bosh soni 2007 yil xolati bo'yicha 1milliard 348 million 705 ming boshga etgan. Shundan 245 million boshi sigirlardir (18,2%).

Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga 8,9 kg qoramol go'shti to'g'ri kelgan bir paytda, bu ko'rsatkich Yangi Zellandiyada 154,8kg, Avstraliyada 109,7kg, Argentinada 70,3kg, AQSHda 40,6kg, Kanadada 40,6kg, Yaponiyada 3,9kg, Janubiy Koreyada 4,6kg, Xitoyda 4,4kg, Turkiyada 6,1kg, Hindistonda 1,1kg ni tashkil qilgan, (A.T.Miysik 2010) 2009 yil 1 yanvar xolati bo'yicha Rossiya Federatsiyasining xo'jaliklarida jami 451 ming bosh, shu jumladan 182 ming bosh maxsus go'sht yo'nalishidagi qoramollar mavjud. Bu esa 2004 yilga nisbatan shunga mos ravishda 21,1 va 28,3 (14%) ko'p demakdir. Sohada eng katta muammo bu zarur bo'lgan ozuqani 85-90% atrofida, ayrim yillarda 67% gacha tushirishdadir. (Z.Kalashnikov va boshqalar 2009). Bizning Respublikamizda

maxsus go'sht yo'nalishidagi qoramollar bosh sonini 6% atrofida. Bu degani 540 ming bosh atrofida degani. Albatta bu bilan go'sht muammosi yechilmaydi.

Qoramollarning go'sht maxsuldorligi bo'yicha genetik potensialini yuzaga chiqarishda rus olimlaridan N.F.Rastovsev, D.L.Levantin, S.Ya.Dudin, K.Y.Svechin, A.V.Lanina, A.V.Chereksev, I.I.Cherkashenko, A.Biagriy va boshqa ko'pgina olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Bu tadqiqotlarning olib borilishi nafaqat Rossiya Federatsiyasining balki MDH davlatlarining qoramolchilik tarmog'ini yuksaltirishda, maxsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Aynan shu tadqiqotlar natijasida qoramolchilikni ixtisoslashgan tarzda rivojlantirishga asos solingan.

G.A.Efanovning (1998) takidlashicha go'sht maxsuldorlini yetishtirishni jadallashtirishda sutbop sigirlarni maxsus go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlarini buqalari nilan chatishtirish samarali hisoblanadi. Misol uchun Qizilcho'l, qizil cho'l x aberdin-anguss, qizil cho'l x gerford, qizil cho'l x sharole, qizil cho'l x limuzin, qizil cho'l x santa-gerdruda chatishma avlodlarini 15 oyligidagi nimitalanmagan go'shtini og'irligi tegishlicha: 162,2; 173,2; 184,8; 192,6; 191,3; 185,2 kg bo'lgan. Qizil cho'l x sharole avlodlari o'z tengqurlaridan shunga mos ravishda: 30,4 kg (18,7%), 19,4kg (11,2%), 7,8kg (4,2%), 1,3kg (0,7%), 7,4 kg (4%) ziyod tosh bosgan. 18 oylikda nimitalanmagan go'sht og'irligi bichilmalarda tegishlicha: 191,5; 200,2; 219,4; 232,8; 234,3; 222,6; 219,5 kg bo'lgan. Bunda ham ustunlik qizil cho'l x sharole avlodlarida kuzatilgan bo'lin tegishlicha: 42,8 kg (22,4%), 34,1 kg (17%), 14,9 kg (6,8%), 1,5 kg (0,6%), 11,7 kg (5,3%), 14,8 kg (6,7%) ga teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki chatishma hayvonlarning barchasi sof zotliga nisbatan ko'p va sifatli maxsulot berishgan.

Bizning mamlakatimizda chorvachilikning boshtarmog'i bu – qoramolchilik hisoblanadi. Chunki istemoldagi sutning deyarli barchasi qoramollardan olinsa, istemoldagi go'shtni ham 70% ga yaqini aynan qoramolchilikdan olinadi. Boshqacha qilib aytganda O'zbekistonning istemol bozoridagi go'sht balansida qoramol go'shti birinchi o'rinda turadi. Vaxolanki qoramol go'shti butun dunyoda cho'chqa va parranda go'shtidan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Shuni qayd qilish lozimki mamlakatimizning turli toifadagi xo'jaliklarida qoramollar bosh soni

o'shishi har yili 5-7% ni, sut ishlab chiqarishni o'sishi 2-2,5% ni va go'sht maxsulotini ishlab chiqarish esa 15-20% ga oshib bormoqda.

O'zbekistonda urchitilayotgan rejali zotlarni 4-5 % gina maxsus go'sht yo'nalishidagi zotlar tashkil qiladi xolos. Ularning ham sof holda urchitish axvoli talab darajasida emas. Shuning uchun ham qoramol go'shti asosan go'sht emas balki sut yo'nalishidagi zotlardan va ularni o'zaro chatishtirish natijasida olingan har xil genotipli avlodlardan olinadi.

Sut yo'nalishidagi qoramol zotlari orasida o'zining salmog'i va sigirlarining sut maxsuldorligi bilan qora-ola zoti birinchi o'rinda turadi. Ushbu zotni go'sht maxsuldorligi va umuman xo'jalikka foydali belgilari A.Xrapkovskiy (1985), E.Karshevskiy (1985), Z.to'raqulov (1985), P.Sobirov (1990), Yu.Fayzullaev (1993), A.Kaxarov (1994), R.Valiev (1996), U.Nosirov (2001, 2007, 2009), Z.To'raqulov va boshqalar (1999-2002) hamda ko'pgina olimlar o'rgangan.

Lekin bu ish xozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Xozirda qora –ola va uni har xil genotipli chatishma avlodlarini go'sht maxsuldorligi maxliyo qilmoqda.

Z.To'raqulov va boshqalar (1988) Respublikamiz saharoitida rejali hisoblangan santa-gertruda, qozoqi-oqbosh va aberdin-anguss kabi maxsus go'sht yo'nalishidagi qoramollarni go'sht maxsuldorligini o'rgangan. Tajriba uchun har qaysi guruhga 20 boshdan 6 oylik buqalarni (ularni ikkiga bo'ladi) yani, har guruhdan yarmini 18 oylikkacha binoda yarmini esa ochiq maydonda saqlaydi. 18 oylikda nazorat so'yim o'tkaziladi. Binoda boqilgan santa-gertruda, qozoqi oq bosh, aberdin-anguss buqachalarini so'yishdan oldingi tirik vazni 44,8 kg ni tashkil qilgan. Bu esa o'z tengqurlari qozoqi oq bosh va aberdin-angussdan shunga mos ravishda 1,2 kg yoki 0,3% va 20,8 kg yoki 4,9% ziyod ko'rsatkichga erishgan.

Go'sht maxsuldorligi xarakterlaydigan va uning ko'rsatkichi boshqa so'yim ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lgan. Go'sht og'irligi 263,6 kg bo'lib bu ko'rsatkich bo'yicha santa-gertruda foydasiga shunga mos ravishda 5,0 kg ni yani 1,9% ni va 4,0 kg ni yani 1,5% ni tashkil qilgan. Ichki yog' og'irligi guruhlarda mutanosib ravishda 12,2; 15,0; 12,2 kg bo'lgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham guruhlarda farq kuzatilga bo'lib santa-gertruda ustunlik qilgan.

Yuqorida tahlil qilingan buqachalarni ochiq maydonda boqilganlari jadal o'sib tenqurlariga nisbatan so'yishdan oldingi tirik vazni tehishticha 41,0 kg yoki 9%, 17kg yoki 3,8% va 28kg yoki 6,6% ko'p bo'lgan. Nimtalanmagan go'sht og'irligi bo'yicha farq maydonda boqilgan buqachalar foydasiga mutanosib tarzda 17kg yoki 6,4%, 22kg yoki 8,5% va 10 kg yoki 3,9% ni tashkil qilgan go'sht mahsuldorligini boshqa ko'rsatgichlari bo'yicha ham guruhlararo farq aniqlangan.

V.Sarankin va boshqalar (2006) qora ola zotiga mabsub sigirlarni go'shtin bilan chatishtirib olingan, go'lishtin zoti bo'yicha turlicha bo'lgan aniqrog'i I guruh hayvonlarida 37,5%, II guruhda 37,5% dan 62,5%gacha va III guruhda esa 62,5% dan yuqori bo'gan buqachalarni hamda aynan shunday genotipga ega bo'lgan katta yoshdagi sigirlarni go'sht mahsuldorligini o'rganishgan.

Mahsus tahlil qilingan ilmiy ishlab chiqarish tajribasida shu narsa kuzatilganki barcha guruhlardagi hayvonlarni o'sish va rivojlanish ko'rsatgichlari yuqori bo'lgan. Ayrim individlar 1 kunda 1000 gr gacha qo'shimcha tirik vazinga erishgan. Bir paytning o'zida bu ko'rsatgich ayrim individlarda 700-800 gr ni tashkil qilgan. Tana o'lchamlari va olingan tana o'lchamlari asosida o'lchangan tana tuzilishi indeksleri bo'yicha ham ishonarli darajada guruhlararo farq aniqlangan bo'lib, bunda chatishma buqachalar ijobiy tomonga oshirilib turilgan. 18 oylikda o'tkazilgan nazorat so'yim I guruh hayvonlarida go'shtning og'irligi 194,2 kg, II guruhda 102,4 kg, III guruhda 104,9 kg bo'lganligini ko'rsatadi farq oxirgi guruh foydasiga tegishli ravishda 8,2 kg yoki 4,4% va 10,7 kg yoki 5,8% ni tashkil qilgan. Ammo bu ko'rsatgich bo'yicha II guruhdagi katta yoshdagi sigirlar aksincha o'z tenqurlari I va III guruhlardan mutanosib ravishda 29,4 kg yoki 10,4% va 30,7 kg yoki 10,9% ustunlikka erishgan. Lahm go'sht salmog'i bo'yicha ham buqachalardan I guruh ham (155,2 kg) va sigirlardan esa II guruh (145 kg) yuqori ko'rsatkichga erishgan. Aniqlangan farq statistic jixatdan o'ta ishonchli darajadadir.

Yurtimizda agrar sektorning chorvachilik sohasida bozor munosabatlarini qaror topdirish borasida izchillik bilan amalgam oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar natijasida bozor munosabatlariga asoslangan yangi tizim shakillanayotgan xo'jalik myuritish va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy, tashkiliy va xuquqiy

shart sharoitlarini tubdan o'zgartirib, pirovardida mulkchilikning turli shaklidagi chorvachilik xo'jaliklarining raqobatchilik asosida faoliyat olib borishini taminlashi takidlanadi.

Tadbirda erishilgan yutiqlar qatori sohada o'z yechimini to'la topmagan ayrim muammolar, xususan mamlakatimiz qonunchiligida chorvachilikka oid xuquqiy meyyorlar doirasida ayrim bo'shliqlar mavjudligi haqida fikrlar bildirildi. Xususan chorvachilik yuritishning ekstensiv va intensiv texnologiyalarini qo'llash xaqidagi xuquqiy meyyorlar, sug'oriladigan va lalimi yerlarda chorvachilik yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari qonunchilikning ochilmagan qirralarisifatida etirof etildi.

Mamlakat xalq xo'jaligida amalgam oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida yangi xuquqiy munosabatlar vujudga keldi. Ayni paytda chorvachilik fermer xo'jaliklari, dehqon va tomorqa xo'jaliklari orasidagi munosabatlar, ularga doir soliq siyosati, shuningdek, chorvachilik xozuqa bazasini tashkil etish, chorvachilikni sanoat asosida yuritish, chorva fermalarini barpo etishda ularning zoogigienik va ekologik parametrlari, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida chorvachilikni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari; turli shakldagi chorva xo'jaliklari orasida koperatsiya masalalari, chorva maxsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashni tashkil etish borasida ham bo'shliqlar mavjudligiga etibor qaratildi. Jumladan soha rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi chorva ozuqa bazasini tashkil etish borasida ozuqabop ekinlar yetishtiruvchi, tayyorlovchi ularni qayta ishlovchi korxonalar maqomi amaldagi qonunchilikda aniq belgilanishi kerakligi to'g'risida atroflicha o'rganildi. Shu bilan birga, boshqa yo'nalishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ham chorvachilik yuritishning xuquqiy asoslarini yaratish aholining chorva maxsulotlariga bo'lgan extiyojini to'laroq qondirilishiga imkon yaratilishi haqida muloxazalar bildiriladi.

V.M.Ivanov (2005) qizil cho'l va qora-ola zotlariga mansub buqachalarni ayrim maxsuldorlik ko'rsatkichlarini, ushbu zot sigirlarini golishtin buqasi bilan chatishtirish natijasida olingan chatishma hayvonlarning ko'rsatkichi bilan taqqoslab o'rgangan. 424 kunlik so'qimlashdan keyin sof zotli buqalarni tirik vazni 422 kg ga yetgan. Bu ko'rsatkich chatishma hayvonlarda 443 kg ni tashkil qilgan, farq chatishma hayvonlar foydasiga 21 kg yoki 5,0% ga tengdir.

Nimtalalmagan go'sht miqdori bo'yicha farq chatishma buqachalar foydasiga 18,6 kg yoki 8,6%. So'yim chiqimi, shunga mos ravishda guruhlarda 55,1% va 57,5 % ni tashkil qilgan. Olingan natijalar asosida bir-biriga yaqin bo'lgan sutbop qoramollarni chatishtirish natijasida olingan avlodlarda oz bo'lsada geterozis xodisasi namoyon bo'lgan degan xulosaga kelgan.

Xaqiqatdan ham ushbu tajriba yana bir bor qora-ola zotli qoramollar nafaqat o'zining sut maxsuldorligi bilan, balki go'sht maxsuldorligi bilan ham ko'pgina go'sht yo'nalishidagi zotlardan ustun ekanligini ko'rsatgan. Bundan tashqari qora-ola zoti o'zida mujassamlashgan miqdor va sifat belgilarini avloddan avlodga o'tishi bo'yicha ham yaxshi xususiyatga ega ekanligini namoyon etdi. Istemol qilgan ozuqasini maxsulot birligi bilan qoplash qobiliyati ham talab darajasida.

O'tgan vaqt ichida olib borilgan iqtisodiy islohatlar natijasida yer islohati va suvdan foydalanish bo'yicha tub o'zgarishlar ro'y berdi. Moliya kredit soliq va sohasida ham qator ishlar amalgam oshirilib, narx navo masalasida ijobiy barqarorlikka erishildi. 2010 yil natijalariga ko'ra mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki maxsulotning 5/1 qismi qishloq xo'jaligi sohasida yaratilmoqda.

Sohaning aholi oziq-ovqat maxsulotlari, sanoatni xom-ashyo bilan taminlashdagi ahamiyati tobora o'sib bormoqda. Qishloq xo'jalik istemol bozoridagi barcha turdagi oziq-ovqat maxsulotlarining 90% ga yaqini agrar sektor tarmoqlarida tayyorlanadi. Shu jihatdan qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, "Qishloq traqqiyoti va farovonligi yili", "2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarchi choralar" va 2010 yilda ish o'rinlarini barpo etish va aholi bandligini taminlash" kabi qator davlat dasturlari qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar izchilligi hamda samarali natijalari taminlanishi borasida muhim ahamiyat kasb etayotgani; vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis qarorlari va boshqa xujjatlari, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Maxkamasi qarorlari hamda boshqa qonun xujjatlariga, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi to'g'risida Nizom" ga amal qilishi; mamlakatda agrar sohaga oid Davlat Dasturlari ijrosi esa Nizomda rasmiy belgilab qo'yilgan qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasida ishlarni

muvofiglashtirish borasida vazifa va funksiyalar asosida bevosita yoki vazirlik tasarrufidagi Respublika va xududiy organlar orqali amalga oshirilishini qayd etadi.

2011 yilda mamlakatimizda aholi bandligini taminlash va yangi ish o'rinlarini yaratish Dasturida belgilanganidek va 2011 yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb elon qilinganligi munosabati bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish natijasida sohada band bo'lgan ortiqcha ish kuchini boshqa tarmoqlarga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshib borishining muhim omili ekanligi takidlandi.

Bunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohaga hizmat qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirish, kichik qayta ishlash korxonalari, biznes va tadbirkorlik, qoramolchilikni rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish ustivor ravishda amalga oshirilganligini etirof etadi.

Qishloq xo'jaligi sohasini malakaliu mutaxassislar bilan taminlash, sohada mutaxassislar malakasini oshirish, qayta tayyorlash tadbirlarini muntazam ravishda amalga oshirib borish masalalariga alohida to'xtalib o'tdi.

A.B.Karakulov (1996) qora-ola (I guruh), qora-ola x golishtin (II guruh) chatishma hayvonlarini o'sish, rivojlanish, eksteryer xususiyatlari va go'sht maxsuldorligini Tojikiston Respublikasining sharoitida taqqoslab o'rgangan. Tajribadagi buqachalarning asrash va oziqlantirish sharoiti bir xil bo'lgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki har ikkala guruh hayvonlarining mutloq va nisbiy o'sishi ham yuqori darajada bo'lgan. Lekin qora-olaga qaraganda ularni sigirlarini golishtin zotining buqachalari nilan chatishtirish natijasida olingan birinchi bo'g'in avlodlari ancha ustunlikka erishgan. Xususan 21 oylikda sof zotli qora-ola buqachalarining o'rtacha trik vazni 479,8 kg ni tashkil qilgan bo'lib bu ko'rsatkich bo'yicha o'z tengqurlari sof zotli qora-ola buqachalarini 4,5 kg yoki 0,9% ga ortda qoldirishgan.

Buqachalarning bir kunlik o'sishi, nisbiy o'sishi va o'sish ko'effitsienti bo'yicha ham ishonarli darajada guruhlararo farq aniqlangan. Tana tuzilishi sut

yo'nalishidagi zotning tana tuzilishiga xos bo'lgan. Ularning ko'krak qafasi, ko'krak eni, uylarning oldingi qismi proporsional rivojlangan bo'lgan. Hayvonlarning go'sht maxsuldorligini aniqlash uchun 15, 18, 21, va 24 oyliklarida nazorat so'yimini o'tkazilib, har bir o'sish oyida har guruhdan o'rtacha besh boshdan hayvon so'yilgan va so'yim ko'rsatkichlari aniqlangan. Go'sht maxsuldorligi bo'yicha baholanganda maydalanmagan go'shtning og'irligi muhim hisoblanadi. Bu tajribada II guruh hayvonlarini go'shtini og'irligi I guruh hayvonlariga nisbatan 8-17 kg ko'p bo'lgan.

Yurtimizda agrar sohaning chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik tarmoqlarida ham bozor munosabatlarini qaror topdirishga qaratilgan iqtisodiy islohatlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Ayni paytda sohadagi hali qo'llanilmayotgan omillarni ishga tushirish ham dolzarb masalaga aylangan. Jumladan, aholi shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida ozuqabop ekinlar etishtirish va tayyorlash tizimini yaratish, ular qaramog'idagi chorva ozuqa yetishtirib berish kabi masalalar bugungi kunda o'z yechimini kutmoqda.

Qishloq xo'jaligi yerlarida tuproq unumdorligini aniqlash va oshorib borishga qaratilgan davlat siyosatini yanada takomillashtirish, mutasaddi tashkilotlarning masulyatini oshirish, tuproq unumdorligini oshirib borishni rag'batlantirish, ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan respublika va xududiy dasturlarni amalgam oshirishga davlat xokimiyati organlari vazifalariga oid xuquqiy meyyorlarni mustahkamlab qo'yish masalalarini qo'ymoqda. Qishloq xo'jaligi subyektlari maqomini belgilash va ishlab chiqarish ixtisoslashuvi hamda asosiy ekinlar bo'yicha turlanishning xuquqiy meyyorlarini ishlab chiqilishi orqali ishlab chiqarishga innovatsiyalarni jadal tadbiriq etish ham zamon talabi darajasidagi muhim masalalarga oydinlik kiritilishi zarur.

Bugungi kunda ham fermer xo'jaliklarining samarali faoliyat yuritishlarining xuquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida fermer xo'jaliklarining xuquq va majbuiyatlarini yanada kengaytirishga hamda ularning moddiy texnik bazasini kuchaytirish, ishlab chiqarish infratuzilmalarini tashkil etishga qaratilgan qonunchilik asoslarini yaratish va ularni hayotga tadbiriq etish talab etiladi.

Mamlakat qishloq xo'jalisida isloxlarni izchil chuqurlashtirish mamlakatda oziq-ovqat barqarorligini taminlash, aholi ehtiyojlarini yanada to'liqroq qamndirish, sanoatni xom ashyo bilan uzluksiz taminlab boorish, qishloqda turmush farovonligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish, fermerlik harakatini yanada qo'llab quvvatlash, uning moddiy texnik bazasini mustaxkamlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni tashkil etish, qishloqda shakillanayotgan yangi mulkiy munosabatlar o'rta sinif mulkdorlar, tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlar manfaatlarini izchil himoya qilishni taminlashga qaratilgan.

Yurtboshimiz tomonidan bildirilgan :Fermer boy bo'lsa –mamlakat obod bo'ladi" degan ibora agrar soha, uning asosiy va yetakchi kuchiga aylangan fermer xo'jaliklari mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishdagi naqadar muhim o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

A.A.Xushvaqtov (2007) sof qora-ola zotli buqachalarni va shu zot sigirlarni golishtin zotiga mansub bo'lgan buqalar bilan chatishtirish natijasida olingan buqachalarning o'sish, rivojlanishini ayrim biologik xususiyatlari va go'sht maxsuldorligini Zarafshon voxasi sharoitida o'rgangan. Buning uchun 3 oylik erkak buqachalardan 30 bosh ajratgan. Jumladan, 10 boshi sof zotli qora-ola (I guruh), 10 boshi qora-ola sigirlarini golishtin bilan chatishtirish natijasida olingan birinchi bo'g'in (II guruh) va yana 10 bosh ikkinchi bo'g'in (III guruh) chatishma avlodlari bo'lib, ularni bir xil asrash va oziqlantirish sharoitida boqqan va so'qimlagan.

Shuning uslubiga binoan hayvonlarning go'sht maxsuldorligi va go'shtining sifatini o'rganish maqsadida 18 va 21 oylikda nazorat so'yim o'tkazilgan. Olingan malumotlar barcha hayvonlar jadal o'sganligini zotga xos bo'lgan darajada rivojlanganligini, klinik statusi, qoni organizmning klinik va gemotologik ko'rsatkichlari fiziologik meyyor darajasida bo'lganligini ko'rsatgan. Xususan 21 oylikda tashkil qilgan nazorat so'yimda qora-ola buqachalarining tirik vazni 464,3 kg ni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich ularning tengqurlari II va III guruhlarda 506,1 va 521,3 kg bo'lgan. Demak farq oxirgi guruh foydasiga 57 kg yoki 12,3% ga va 15,2 kg yoki 3,0% gat eng bo'lgan. Buqachalarning bu oydagi so'yim og'irligi tegishli ravishda 269,3; 291,2 va 309,6 kg ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich

bo'yicha ham III guruh buqachalari o'z tengqurlari I va II guruhni shunga mos ravishda 40,3 kg yoki 15,0% va 18,4 kg yoki 6,3 % ga ortda qoldirgan. Go'shtning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha esa qora-ola zotli buqachalar ustun bo'lishgan.

A.Samatov (1999, 2004) qo'shni Tojikiston Respublikasining shimoliy hududlari sharoitida qora-ola zotli buqachalarni va ushbu zotli buqachalarni va ushbu zot sigirlarini golishtin zotli buqalar bilan chatishtirish natijasida olingan har xil zotdorlikdagi chatishma hayvonlarni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini, klinik statusini, go'sht maxsuldorligi va go'shtining sifati kabi ko'rsatkichlarini taqqoslab o'rgangan.

Muallifning olingan raqamli ma'lumotlari asosida takidlashicha chatishma hayvonlarda golishtin qon ulushi darajasi oshgan sari o'sish va rivojlanish jarayoni jadal kechgan.

Istemol qilgan yem –xashakni maxsulot birligi bilan qoplash xususiyati esa yaxshilangan, yani kam ozuqa istemol qilib ko'p maxsulot berishgan. Xususan 21 oylikda sof zotli qora-ola va ularning birinchi, ikkinchi bo'g'in chatishma avlodlarining tirik vazni tegishli ravishda 565,8; 569,7 va 579,2 kg bo'lgan. Ko'rinib turibdiki ikkinchi bo'g'in avlodlari o'z tengqurlari sof zotli va birinchi bo'g'in chatishma avlodlarini bu ko'rsatkich bo'yicha tegishlicha 13,4 kg yoki 2,4%, 9,5 kg yoki 1,7 % ortda qoldirgan.

Nimtalannagan go'shtning og'irligi mutanosib ravishda 24 oylikda 339,4; 343,2; 357,4 kg ni tashkil qilgan. Farq oxirgi guruh foydasiga mos ravishda 18 kg yoki 5,3 %, 14,2 kg yoki 4,1 % ga teng bo'lgan. 24 oylikda buqachalarning tirik vazni tegishlicha 628,5; 635 va 658,3 kg bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha ham guruhlararo farq oxirgi guruh faydasiga shunga mos ravishda 29,8 kg yoki 4,7 %, 23,3 kg yoki 3,7 % gat eng bo'lgan. Go'shtning morfologik va kimyoviy tarkibi bo'yicha ham ishonarli darjada farq kuzatilgan.

G'B.Amanturdiyevning (1996) Toshkent viloyati sharoitida asosan qora-ola zotli hayvonlarni urchitilishini hisobga olgan holda, ushbu zotga mansub buqachalarni turli asrash sharoitida o'sish, rivojlanishini klinik va gemotologik ko'rsatkichlarini va go'sht maxsuldorligini o'rgangan. Tajriba davomida olingan malumotlar shuni ko'rsatadiki 8,5 oylikkacha binoda, 8,5 oylikdan to 10

oylikkacha yengil yopilgan ayvonda bog'lamasdan, keyin 14 oylikkacha bog'lab, 17 oylikkacha yengil yopilgan ayvonda bog'lab so'qimlangan. Buqachalar o'sib katta tirik vaznga erishgan. Xususan 17 oylikda o'tkazilgan nazorat so'yimda shu narsa ayon bo'ldiki, so'yishdan oldingi tirik vazn ushbu guruh (VI) buqachalarida 465 kg bo'lib o'z tengqurlari I guruhdan 37,5 kg yoki 8,8%, II guruhdan 22,6 kg yoki 5,1%, III guruhdan 12 kg yoki 2,6%, IV guruhdan 27,4 kg yoki 6,7 % va V guruhdan 12,3 kg yoki 2,7%. Go'sht maxsuldorligini xarakterlaydigan nimitlanmagan go'sht og'irligi bo'yicha VI guruh buqachalari 260,2 kg, o'z tengqurlari I,II,III,IV,V, guruhlarini tegishlicha; 28,7 % kg yoki 12,4 %; 17,7 kg yoki 7,3 %; 11,4 kg yoki 4,6 %; 19,3 kg yoki 8,0%; 10,0 kg yoki 4,0% ga ortda qoldirishgan. So'yim og'irligi bo'yicha farq guruhlarda shunga mos ravishda (VI guruhda 176,2 kg) 31,2 kg yoki 12,7 %, 20,1 kg yoki 7,8 %, 13,5 kg yoki 5,1 %, 21,1 kg yoki 8,3 % va 10,9 kg yoki 4,1 % ni tashkil qilgan.

Klinik status, o'sish va rivojlanish hamda go'shtning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ham guruhlararo farq kuzatilgan. Olingan natijalarni mavjud bo'lgan ilmiy manbalarning malumoti bilan umumlashtirib muallif Respublikamiz sharoitida urchitiladigan qora-ola zotga mansub buqachalarning o'sish va rivojlanishiga ularning go'sht maxsuldorligiga hamda go'shtining sifat ko'rsatkichlariga yashash sharoiti ham tasir qiladi degan xulosa qilindi.

D.S.Adushinov va boshqalar (2002) ham hayvonlarni zotiga va zotdorligiga, yoshiga, jinsiga qarab o'xshashlik asosida 3 guruhga bo'lgan. Har bir guruhga 60 boshdan buqalarni tanlab olgan. I guruhga sof zotli qora-ola, II guruhga birinchi bo'g'in duragaylari va III guruhga ikkinchi bo'g'in duragaylari (qora-ola x golishtin).

Barcha guruhlardagi hayvonlar genetik kelib chiqishidan qat'iy nazar bir xil sharoitda asralgan va oziqlantirilgan. Tajriba 3 oylikdan 18 oylikkacha bo'lgan. 18 oylikda har bir guruhdan 10 boshdan hayvon ajratilib nazorat so'yim tashkil qilindi. So'yishdan oldingi tirik vazn guruhlarda tegishlicha 450,3; 489,4 va 478 kg bo'lgan. Ko'rinib turibdiki so'yishdan oldingi tirik vazn bo'yicha II guruh hayvonlari o'z tengqurlari I va III guruhlardan tegishli ravishda 39,1 kg yoki 8,7 % va 11,4 kg yoki 2,4 % yuqori ko'rsatkichga erishgan.

Nimtalannagan go'sht og'irligi I guruhda 245,6; II guruhda 271,7 va III guruhda 269,9 kg bo'lgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham II guruh hayvonlari foydasiga farq shunga mos ravishda 26,1 kg yoki 10,6 % va 1,8 kg yoki 0,7 % ni tashkil etgan. So'yim chiqimi esa tegishli 59,7; 61,1 va 60,9 % bo'lgan. 100 kg vaznga to'g'ri keladigan lahm go'sht I guruhda 43,4; II guruhda 45,5 va III guruhda 45,1 kg ni tashkil qilgan. Olingan malumotlar asosida mualliflar qora-ola zoti nafaqat o'zining sut maxsuldorligi balki go'sht maxsuldorligi bo'yicha ham ko'pgina zotlardan ustun ekanligini takidlagan. O'tkazilgan tajribalarda birinchi bo'g'in buqachalarda kam bo'lsada geterozis hodisasi namoyon bo'lgan degan xulosaga kelishgan.

O.Getokov va boshqalar (2004) qora-ola zotiga mansub sigirlarni golishtin zoti bilan chatishtirish natijasida olingan har xil genotipli chatishma hayvonlar o'zining embrion davrida past suratlar bilan o'sadi va rivojlanadi.

Bunda ular sof zotli qora-oladan birmuncha orqada qoladi degan xulosaga kelishgan.

Lekin ko'pgina kuzatishlar natijasida shu xolat aniqlandiki o'sishning keyingi postembrional davrlarda chatishma avlodlar sof zotlilardan ustunlik qilishgan. Xususan 18 oylik yoshdagi birinchi va ikkinchi bo'g'in chatishma buqachalar 441,3 va 450,4 kg tirik vaznga ega bo'lib, shunga mos ravishda sof zotli qora-ola sigirlarini 9,1 kg yoki 2,0 % va 27,8 kg yoki 6,5 % ortda qoldirishgan. Nimtalar g'rligi sof zotli qora-ola zotiga mansub buqachalarda 220,6 kg ni tashkil qilgan bo'lib, birinchi bo'g'indagi tengqurlarida 13,8 kg yoki 6,3 % va ikkinchi bo'g'indagi tengqurlaridan esa 22,0 kg yoki 11,0% kam tosh bosgan. So'yim chiqimi guruhlarda shunga tegishli ravishda 55,3; 56,3 va 57,5 ga teng bo'lgan.

Maxsus tajribalardan olingan natijalarning tahlili shundan dalolat beradiki qora-ola zotini golishtin zoti bilan ayrim xo'jalikka foydali belgilarini takomillashtirish bugungi kun talabi ekan.

Ushbu tadqiqot ham MDH da urchitilayotgan 300 ga yaqin qoramol zotlari orasida qora-ola zoti nafaqat o'z o'rnini borligidan dalolat beradi va yana bir marta qora-ola zoti nafaqat o'zining sut maxsuldorligi balki go'sht maxsuldorligi va

go'shtining sifati yani ekologik jihatdan tozaligi bo'yicha boshqa urchitilayotgan zotlardan qolishmaydi aksincha ularni ko'pidan ustunlik qiladi.

P.S.Sobirov (1995) malumoti bo'yicha Samarqand viloyati sharoitida qora-ola zotli qoramollar o'zining iqlimlanish xususiyati va maxsuldorligi bilan ko'pgina boshqa zotlardan ijobiy tomonga ajralib turar ekan. Lekin boshqa zotlar kabi ushbu zot ham o'zining ayrim xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirishga muxtoj. Shuning uchun ham uni genofondiga mansub bo'lgan golishtin zoti bilan chatishtirish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda 1980 yillardan boshlab ushbu zotning Kondaktr va Xarlov laqabli naslli buqalari keltirilib, qora-ola zoti bilan chatishtirish ishlari boshlangan.

Muallif ayrim o'tkazgan ilmiy ishlab chiqarish tajribalarining natijalariga asoslanib qora-ola zotli qoramollarning sigirlari o'zining sut maxsuldorligi bilan mamlakatimiz sharoitida urchitilayotgan boshqa rejali qoramol zotlaridan ancha ustun bo'libgina qolmay o'zining go'sht maxsuldorligi bilan ham hatto Respublikamizda urchitilayotgan ayrim go'shtbop zotlardan qolishmaganligini takidlagan.

Tahlil qilingan ko'pgina ilmiy manbalarga asoslanib ham shuni qayd qilish mumkinki haqiqatdan ham qora-ola zotli qoramollar o'zining bosh soni va sigirlarining sut maxsuldorligi bo'yicha mamlakatimizning o'ziga xos ekologik va shu o'zgaruvchan iqlim sharoitida urchitiladigan qoramol zotlari orasida birinchi o'rinda turadi. Go'sht maxsuldorligi va go'shtning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ham maxsus go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlaridan qolishmasligi bilan ham ajralib turishini takidlash kerak.

A.Kaxarov va boshqalar (2004-2005) D.Avazov va boshqalar (2005) qora-ola zotlari golishtin zoti bilan chatishtirish natijasida olingan chatishma avlodlarni o'sish va rivojlanishi ko'rsatkichlari, ayrim biologik xususiyatlari va go'sht maxsuldorligini Respublikaning eng issiq hududi Surxondaryo viloyati sharoitida sof zotli qora-olaning ko'rsatkichlariga taqqoslab o'rgangan.

Tajriba natijasida olingan ma'lumotlar asosida mualliflar o'sish jadalligi istemol qilgan ozuqani maxsulot birligi bilan qoplash xususiyati, fiziologik ko'rsatkichlari, klinik statusi va etologik xususiyatlari, so'yimning miqdor va

nisbiy ko'rsatkichlari, lahm go'sht miqdori, go'shtdorlik koefssienti, go'shtining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha chatishma hayvonlar o'z tengqurlari sof zotli qora-oladan ustun ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Mualliflar olingan natijalarni atroflicha tahlil qilib chatishma hayvonlar organizmida sof zotli tengqurlariga nisbatan geterazigot holdagi va dominand holdagi gomozigot ko'p ekanligini takidlashgan. Shuning uchun ham chatishma hayvonlar organizmida oqsillarning va moddalar almashinish jarayonlari meyyor darajada bo'lgan. Bu esa o'z navbatida hujayra va to'qimalarni biologik jarayonlari normal kechib organizmni durkun va jadal o'sishini taminlagan. Natijada tirik vazn bilan bevosita bog'liqlikda bo'lgan go'sht maxsuldorligi va uning sifat ko'rsatkichlari qora-ola ham ayniqsa qora-ola bilan golishtinni chatishtirish natijasida olingan avlodlarda ham yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlar natijasining xulosasi o'rnida shuni aytish kerakki, bizning mamlakatimizning o'ziga xos ekologik va iqlim sharoitida go'sht maxsuldorligi natijasida go'sht muammosini hal qilishda qoramolchilikni davr talabi asosida rivojlantirish muhim ekan. Bunda g'o'sht va sut qoramolchiligi bilan bir paytda maxsus go'sht yonalishidagi qoramolchilikni rivojlantirish chora tadbirlarini ko'rish lozim. Ana shundagina qoramol go'shti ishlab chiqarishni jadallashtirishimiz mumkin ekan.

III. Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan masalalar asosi va ularni bajarish usullari.

Institutda joriy qilingan tartibga binoan kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishi talabalari ham VI o'quv simestirida bitiruv malakaviy amaliyot mavzusini zootexniya fanlaridan tanlaydi. Boshqa yo'nalishdagi bitiruvchilar ushbu yo'nalish talbalari bajaradigan bitiruv ishining farqi shundaki mazkur yo'nalishda bitiruv malakaviy ishi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida zootexnik, texnologik va iqtisodiy masalalar yoritiladi, ikkinchi qismida tanlangan mavzuni qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejarida o'qitish uslubi yani pedagogik uslubiy masalalar tahlil etilib yoritiladi.

Mavzu tanlash tartibi hamma yo'nalishdagidek kafedralar tomonidan taqdim etilgan, dekanat tomonidan elon qilingan mavzular tarkibida o'z ixtiyori bilan tanlaydi. Shundan keyin mavzuni bajarish uchun quyidagicha keltirilganlarga etibor beriladi.

-Bitiruv malakaviy ish mavzusini dekanat orqali hujjatlashtirilganligi, aniqrog'i rektorat buyrug'i bilan rasmiylashtirilganligini tekshirib, uni olingan (tanlangan) mavzuga mosligini bilish

-Bitiruv malakaviy amaliyot o'tash ushuncha belgilangan viloyat, tuman va xo'jalikning jo'g'rofiy joylashishi, undagi ekologik holat va iqlim sharoitlari bilan tanishish

-Tuman, xo'jalik sharoitida urchitilayotgan hayvon va parranda turlari, zoti, zotdorligi, ularning soni, poda tarkibi va poda harakati bilan tanishish. Xo'jalikda ozuqa bazasini yaxshilash uchun qilinadigan ishlar, ozuqa turi, sifati, to'yimliliigi va uning har bir shartli mol boshiga etarlilik darajasi. Sotib olinadigan kuchli ozuqalarning sifati va uni olishda uzulish bor yo'qligini tahlil qilish.

-Xo'jalikda va tumanda chorvachilik va uning asosiy sohasi qoramolchilikning rivojlanish holati, urchitilayotgan zot va zotdorlik tarkibi. Oxirgi 3 yilda qoramolchilikdan olinadigan maxsulotlar to'g'risida statistik malumotlar.

Xo'jalikda maxsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash texnologiyalari xolati.

-Xo'jalikda va tumanda qoramolchilik sohasida olib borilayotgan naslchilik ishlarining holati, suniy urug'lantirish, zooveterinariya va omixta yem sotiladigan shahobchalarni ish tartibi bilan tanishish. Suniy urug'lantirishni dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridagi ahvoli.

Xo'jalikda, tumanda, viloyatda qoramol go'shti ishlab chiqarish holati bilan tanishish, bunda qoramol go'shti asosan qaysi zot va zotdorlikdagi hayvonlardan olinishini bilish. Ishlab chiqarilayotgan go'shtni aholi ehtiyojlariga mos kelish kelmasligini tahlili.

-Chorvachilik va uning asosiy tarmog'i hisoblangan qoramolchilikni barqaror iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlantirishga oid Davlat qonunlari, Respublika

Prizidentning qaror va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tanishish va to'liq tahlil qilib o'zlashtirib olish.

-Qoramol go'shti ishlab chiqarishni dunyo, MDH va Respublikamizdagi holati va uning rivojlanish istiqbollari bilan tanishish. Bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish va mavjud bo'lgan ilmiy-uslubiy, xuquqiy va statistik malumotlar bilan umumlashtirish maqsadida Samarqand qishloq xo'jalik, O'zbekiston chorvachilik va O'zbekiston qorako'lchilikva cho'l ekologiyasi institutlarining hamda Toshkent Agrar Universitetining chorvachilik borasidagi ilmiy to'plamlari "Zootexniya", "Molochnoe i myasnoe", "Agrarnoya nauka", "Biologii selskoxozyaystvennix jivotnix", "O'zbekiston qishloq xo'jaligi", "Zooveterinariya", "Agro ilim" va boshqa jurnallarning oxirgi 10 yildagi mavzuga oid malumotlari bilan tanishish va tahlil qilish.

-Mavzuga oid masalalarni yoritishda mavjud bo'lgan ilmiy, uslubiy, xuquqiy, o'quv va statistik manbalarni o'rganib, ulardagi malumotlarni mavzuda ko'rsatilgan zot malumotlari bilan solishtirish.

-Malumki qora-ola zoti o'zining soni va sigirlarining sut maxsuldorligi bilan Respublikada urchitilayotgan boshqa qoramol zotlari orasida birinchi o'rinda turadi. Lekin ushbu zotning ham o'ziga xos bo'lgan biologik xususiyati shundan iboratki, ushbu zot o'zining go'sht maxsuldorligi bilan ustun turadi. Shuning uchun ham zot to'g'risida to'liq malumotlarga ega bo'lish.

-Chorva mollari, shu jumladan qoramollarning go'sht maxsuldorligiga va go'shtining sifatiga tasir qiladigan omillar to'g'risida batafsil malumotlarga ega bo'lish. Ularning qaysi biri birinchi darajali, qaysi biri ikkinchi darajali ekanligini bilish va shunga qarab boqish, o'stirish, bo'rdoqilash kabi zootexnikaviy tadbiorlarni tahlil qilishni bilish.

-Qoramollarning go'sht maxsuldorligi bo'yicha baholaganda etibor berilishi lozim bo'lgan; tirikligida tirik vazni, semizlik darajasi, 1 kg semirish uchun sarflangan ozuqa miqdori, so'yilgandan so'ng, so'yishdan oldingi tirik vazni, go'sht o'g'irligi, so'yim chiqimi, so'yim og'irligi va uning sifati kabi ko'rsatkichlari to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish.

Qo'lga kiritilgan malumotlarni tahlil qilib, ilmiy tadqiqod manbalari bilan umumlashtirib sohani iqtisodiy samaradorligini oshirishda qilinadigan zooveterinariya tadbirlarini rejasini tuzish va ularni amalga oshirish usullarini bilish.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi yani pedagogik-uslubiy qismiga asosan quyidagilarga etibor berish lozim.

-Kasb talim yo'nalishini tarixini yani ushbu yo'nalishda o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan ko'zlangan asosiy maqsad.

-“Talim to'g'risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” davlat qonunlari mazmun va mohiyati.

-Chorvachilik fanlarini umumiy va xususiy zootexniyalarga bo'lishning sababi va ushbu qismlarga kirgan fanlar soni, nomi ularni chorvachilikni rivojlantirishdagi o'rni. Ularni bir biridan farqi va umumiyligi.

-Chorvachilik fanlari turkumida qoramolchilikni tutgan o'rni bu sohani o'qitishdan maqsad va uni o'qitishda etibor berilishi lozim bo'lgan masalalar. Boshqacha qilib aytganda qoramolchilikning asosiy va qo'shimcha maxsulotlariga nimalar kirishi. Ushbu maxsulotlardan miqdor va sifat ko'rsatkichlariga tasir qiladigan omillar.

-Qoramollarning go'sht maxsuldorligini o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish usullari, nazariy, amaliy va mustaqil ta'limga ajratiladigan o'quv soatlari. Ushbu mavzuni zootexniya, sutni qayta ishlash texnologiyalarini fermerlik va veterinariya bo'limlarida o'qitishning asoslari, ularning farqi va umumiyligi.

-Pedagogik amaliyot davrida aynan shu qayd etilgan masalalarga etibor berish va kerakli malumotlarni to'plash hamda tahlil qilish.

IV. Xususiy tadqiqotlar

Mamlakatimizda ishlab chiqarish borasida olib borilayotgan islohatlar, ulardagi munosabatlarni tubdan o'zgartirishga sabab bo'ldi. Tovar ishlab chiqaruvchilar mustaqil bo'ldi, ko'p ukladli iqtisodiyot shakillandi. Xususan shunday o'zgarishlar chorvachilik va uning bosh tarmog'i qoramolchilik sohasida ham ro'y berdi. Sut va go'sht ishlab chiqarish maxanzimi tartibi o'zgardi. Uning asosiy qismi dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar hisobiga to'g'ri keldi. Xozircha bunda fermer xo'jaliklarining ulushi 4-5 % dan oshmayapdi, albatta bu ijobiy holat emas.

Xususan qoramol go'shti ishlab chiqarish jadalligini taminlash sohani reja asosida rivojlantirishni taqazo etadi. Aytaylik mamlakatda ishlab chiqarilayotgan jami 2 mln tonna atrofidagi go'shtni 65 % qoramol go'shti deb faraz qiladigan bo'lsak bu raqam 1,3 mln tonna ni tashkil etadi. Endi ana shu miqdordagi go'shtni 70% ga yaqinini sutbop zotlar berishini etiborga olsak bu 910 ming tonnani tashkil qiladi. Buning ustiga sut sog'ib olishning ko'payishi va tarmoqni jadallashtirish tufayli mol go'shti tanqisligi bir meyyorda saqlanib qolmaydi, aksincha ko'payadi. Bu muammo go'sht chorvachiligini tiklash, takomillashtirish va bu sohani barqaror rivojlantirish yo'li bilangina bartaraf etish mumkin. Bu tarmoqni tiklash uchun katta xarajatlar zarur emas chunki go'shtbop chorva mollari ancha chidamli, kam harajar hisobidan ko'p maxsulot beradi. Ular har qanday sharoitda iqlimlanishi va yuqumli kasalliklarga chidamliligi bilan boshqa zotlardan ajralib turadi. Go'shtbop chorva sutbop chorvaga nisbatan mexanizatsiya vositalarining u qadar murakkab bo'lmagan va ancha arzonroq turlarini qo'llashga imkon beradi. Shuning uchun ham fond miqyosi 2,5-3,0 barobar kam bo'lgan.

Go'shtbop chorvachilikda yaylov dalalarini uzayishi evaziga) tabiiy ozuqa yerlaridan va maxsuldorligi kam bo'lgan haydalgan maydonlardan samarali foydalanish mumkin. Bu mamlakatimiz mehnat resurslari taqchil bo'lgan mintaqalarda ayni vaqtda juda katta tabiiy ozuqa va unumdorligi past, haydalgan yerga ega bo'lgan mintaqalarda eng avvalo, cgo'l va yarim cho'llarda muvafaqiyatli rivojlanishi mumkin. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan go'sht

yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari ishini yaxshilash. Aynan shu yo'nalishda naslchilik xo'jaliklarini shakillantirish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Ushbu xo'jalikning asosiy vazifasi go'shtbop chorva mollarini yetishtirishda ilg'or tajribani yoyish uning zoti va maxsuldorligini yaxshilash, ozuqa yetishtirish, chorva mollarini boqish va parvarishlash texnologiyalarini o'zlashtirish hamda maxsulotni sotishda amaliy yordam berishdir. Bundan tashqari har bir viloyatda kamida 2-3 ta go'shtbop qoramolchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar tashkil qilish va aynan shu xo'jaliklar orqali boshqa xo'jaliklarni nasilli mol bilan taminlash, qoramol go'shti yetishtirishni jadallashtirish mumkin. Chunki ushbu zotlarga mansub hayvonlar jadal o'sadi, rivojlanadi, o'sish tezligi sutbopga nisbatan 20-25% yuqori. Istemol qilgan ozuqasini maxsulot birligi bilan qoplash xususiyati ham ancha yuqori.

Maxsus go'sht yo'nalishidagi qozoqi oq bosh, santa-gertruda, aberdin –anguss va gereford zotlarini va ushbu zotlarni buqalari bilan sutbop sigirlarni sanoat chatishtirilishi natijasida olingan birinchi bo'g'in avlodlarini go'sht maxsuldorligini U.Nosirov, Z.To'raqulov, M.Xidirov, P.Sobirov, A.Kaxarov kabi olimlar o'rganishgan.

Professor U.Nosirov va boshqalarning (2008) malumotiga ko'ra Santa-gertruda zoti AQShning Texas shtati. Santa-gertruda hududida shortgorn zotini zebuning braman zoti bilan duragaylash asosida yaratilgan. 5/8 shortgorn —3/8 braman qoni bo'lgan duragay mollarning maqsadga muvofiq bo'lgan eng mahsuldor tiplari “o'z ichida” urchitilib, tanlash va saralash asosida yangi duragay zot shakllantirilgan hamda 1940 yili tasdiqlangan. Sobiq Ittifoqqa (Qozog'iston, Ukraina va Rossiyaga) santa-gertruda zotli mollar 1956 va 1966 yillarda olib kelingan. 1959 yili O'zbekistonga birinchi bor Qozog'istondan olib kelingan buqalar Qoraqalpog'istonning “Qoraqalpoq” va Jizzax viloyatining “Pishag'or” go'shtchidik xo'jaliklarida mahatliy qoramollarni chatishtirishda foydadanilgan va ijobiy natijalar olingan (U. Nosirov, A. Asaturov). Shundan so'ng santa-gertruda zotining reproduktor xo'jaligini tashkil qilish maqsadida 1967 yidi O'zbekistonga AQSh ning Texas shtatidagi beshta fermadan (rancho — Nayan Bar, Uinrok, R.Ye.Ranch, Kallon va Xarper) jami bo'lib 80 bosh (shu jumladan, 11 buqa va-69

g'unajin) santa-gertruda zotli mollar olib kelinadi hamda Jizzax viloyatining "Baxmal" (hozirgi A. Usanov) xo'jaligiga beriladi. 1967 yildan boshlab, santa-gertruda zotli mollar tog' oldi mintaqasi sharoitiga moslashtiriladi va uning mahalliy genotipli nasldor podasi prof. U. Nosirov va uning shogirdlari tomonidan shakllantiriladi. 1995 yilga kelib, santa-gertruda zotli mollarning soni 3500 boshgacha yetkazilgan va ularning podalari takomillashtirilgan. Hattoki, to'qol mollar guruxini yaratishga erishilgan.

Santa-gertruda zotli buqalar go'shtchilik xo'jaliklarida mahalliy qoramollarni chatishtirishda keng foydalanilgan va natijada santa-gertruda zotli mollar soni 15 ming boshdan oshgan. Qozog'istonning Olma-ota va boshqa viloyat xujachiklarida santa-gertruda zotli mollarning reproduktor xo'jaliklari yaxshi seleksiya natijalariga erishgan. Buqalarning uch tizimi shakllantirilgan: Lidf 94, Gnom 8015 va Guzer 10817. Qolmiq Respublikasi, Ukraina Rossiya va boshqa davlatlarda qizil chul zotli mollari santa-gertruda zoti bilan keng miqyosda chatishtirilgan va yaxshi natijalar olingan. Mollarning go'sht mahsuldorligi ko'tarilgan va go'shtning sifati yaxshilangan. Hozirga kelib, sobiq ittifoq mintaqalarida 50 ming boshdan ortiq santa-gertruda zotli mollar urchitilmoqda.

O'zbekistonga import qilingan santa-gertruda zotli mollar guruhi beshta fermer xo'jaliklaridan tanlangan bo'lib nasl sifati va mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori bonitirovka klassiga mansub. Mollarning ko'p qismi Nayan-Bar va Xarpyor feomaparidan tanlangan. Ular nisbatan iirik va vazni yuqori (1-jadval).

Import qilingan santa-gertruda zotli mollar

Ramchoning (fermaning) nomi	N	Mollar jinsi	Mollar yoshi, oy	Mollar tirik vazni, kg
Nain-Bar	9	buqalar	20	569.7 ± 12,9
	31	tanalar	17	450.7 ± 6,8
Uinrok	1	buqa	19	626
	13	g'unajinlar	22	393.4 ± 17,0
R.YeRanch	1	buqalar	12	411
	4	g'unajinlar	23	402,8 ± 7,7
Kallon	12	g'unajinlar	23	398.4 ± 8,6
Xarper	9	g'unajinlar	25	502.2 ± 9,5

Olib kelingan mollar nasldor va mahsuldor genealogik tizimlarga mansub. Jumladan, Nayan-Bar fermasidan tanlangan buqa va tanalar zotda mashhur bo'lgan El-Kapitan laqabli buqa tizimidan. Bu buqa King fermasida olingan bo'lib, Texas shtatida yirik fermerlardan bo'lgan Evansga mansub.

Foydali belgilari hamda go'shtning sifati bo'yicha taqqoslanib eng maqbul bo'lganlari aniqlangan. Xujaliklarning tabiiy-iqlim va mavjud iqtisodiy sharoitlarida birinchi avlod chatishma tanalari o'z tengdoshlari mahalliy qoramollardan 21 oyligida 31—32 foizga og'ir kelganlar. II—III avlodlarning vazni 335—365 kilogrammga, sigirlar vazni I tug'ishda 361—405 kg, III va undan yuqori tug'ishida 420—480 kilogrammga yetgan. Turli chatishma mollar ichida eng yuqori ko'rsatkichlar santa-gertruda avlodlarida aniqlandi. Ular mahalliy tabiiy-iqlim sharoitiga chidamliligi, yaylovlardan foydalanish xususiyatlari va go'sht mahsuldorligi bo'yicha qozoqi oq bosh chatishma avlodlaridan ustun keldi. Yaylov sharoitida boqilib, so'ngra bo'rdoqi qilingan 22 oylik II avlod santa-gertruda novvoslari vazni 435,8 kilogrammni, so'yishdan oldingi vazni 408 kg, go'sht nimalar vazni 218,8 kt, ichki yog'lar vazni 20,2 kg, so'yim chiqimi 58,6 foizni va lahm go'sht chiqimi 78,3 foizni tashkil etdi (2-jadval).

Ikki va uch zotli chzgashma novvoslarning 22 oyligidagi go'sht mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar		Uch zotli chatishma avlod		
		Santa-gertruda 2/4, qozoqi oq bosh 1/4, mahalliy qoramol 1/4	Santa-gertruda 2/4, aberdin-angus 1/4, mahalliy qoramol 1/4	Santa-gertruda 3/4, mahalliy qoramol 1/4
Tirik vazni, kg		418,3	423,4	435,8
So'yishdan oldingi vazni, kg		382,0	395,0	408,0
Go'sht nimtalar vazni, kg		206,4	222,4	218,8
Go'sht nimtalar chiqimi, %		54,0	56,3	53,6
Ichki yog'lar vazni, kg		16,7	16,6	20,2
Ichki yog'lar chiqimi, %		4,4	4,2	5,0
So'yim chiqimi, %		58,4	60,5	58,6
Go'sht nimtasi tarkibida	Lahm go'sht mog'i sal	77,8	79,1	78,3
	Suyak salmog'i	19,4	18,4	19,4
Go'shg'dorlik indeksi		4,0	4,4	4,0

Uch zotli santa-gertruda 2/4 — aberdin-angus 1/4 — mahalliy qoramol 1/4 chatishma avlodlari bo'rdoqilash davriga qadar II avlod santa-gertruda novvoslaridan tirik vazni bo'yicha orqada qolgan bo'lsada, bo'rdoqilashda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan.

Ularning vazn o'sish darajasi mahalliy qoramol tengdoshlarinikidan 36—48 foizga yuqori keldi. 90 kunlik bo'rdoqilash davrida ularning o'rtacha kunlik o'sishi tegishli — 894, 866 va 914 grammga, 1 kg semirishiga oziqalar sarfi 6,34,- 6,48 va 6,43 oziqa birligiga teng bo'ldi. So'yilganda ulardan yuqori so'yim chiqimi olindi (3-jadval).

Ushbu o'tkazilgan chatishtirish tajribalarida qozoqi oq bosh zotining II avlodlari tirik vazni, yaylovda va bo'rdoqilashda

semirish darajasi hamda go'sht mahsuldorligi va uning chiqimi bo'yicha boshqa chatishma avlodlardan ustun keldi.

(3-jadval).

Ikki va uch zotli chatishma novvoslarning 18 oyligidagi go'sht mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar		Qozoqi oq bosh 2/4, aberdin-angus 1/4, mahalliy qoramol 1/4	Aberdin-angus 2/4 — qozoqi oq bosh 1/4 — mahalliy qoramol 1/4	Qozoqi oq bosh 3/4 - mahalliy qoramol 1/4
Tirik vazni, kg		334,8	313.8	371,1
So'yishdan oldingi vazni, kg		325,0	310,0	
Go'sht nimalar vazni, kg		182,0	173.6	201.0
Go'sht nimalar chiqimi, %		56.2"	56.0	57.3
Ichki yog'lar vazni, kg		12.5	11.0	13.0
So'yim chiqimi, %		60.0	59.6	61.0
Go'sht nimalari tarkibida. %	Lahm go'sht chiqimi	83,7	83,0	85.2
	Suyak chiqimi	14,0	14,6	12.8

A.Asaturovning "Qoraqalpoq" go'shtchilik xo'jaligida mahalliy qoramollarni santa-gertruda va qozoqi oqbosh zoti bilan chatishtirish tajribalariga ko'ra santa-gertruda chatishma avlodlari tirik vazni va go'sht mahsuldorligi bo'yicha oqbosh chatishma avlodlari hamda mahalliy qoramollardan afzal bo'lgan (4-jadval).

Tajriba novvoslarining 18 onligidagi go'sht mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar		Santa-gertruda 1/2 — mahalliy qoramol 1/2	Qozoqi oq bosh 1/2 - mahalliy qoramol 1/2	Mahalliy qoramol
Tirik vazni, kg		346.5	317,0	283,0
So'yim vazni, kg		178.9	161,6	132,9
So'yim chiqimi, %		58,2	57.6	53.3
Go'sht tarkibi, %	Protein salmog'i	19,4	20,2	20.3
	Yog' salmog'i	5.4	8.6	6,4

Mollarni baholash va tanlash ishlari, saqlash va oziqlantirish sharoitlarini yaxshilash bilan birga olib borilishi tatab etiladi. Yuqori qonli mollar tashqi muhit sharoitlariga va ayniqsa jadal parvarishlash va yuqori me'yorda oziqlantirishga talabchan bo'lib, o'zlarining mahsuldorlik genetik imkoniyatlarini namoyon etadilar. Bu borada quyidagi tajriba ishtarini keltirish mumkin. Tajribada ikki zotli aberdin-angus zotining II va III avlodlari hamda uch zotli aberdin-angus 2/4 santa-gertruda 1/4 - mahalliy qoramol 1/4 chagishma avlodlar yuqori oziqlantirish me'yorida (2879-2950 oziqa birligi va 387—396 kg hazmlanuvchi protein) 18 oylikigacha parvarish qilindi. Ular 8 oylikigacha yaylovda onalari ostida to'liq emizishda saqlandi. So'ngra bo'rdoqichilik korxonasi o'tkazilib, ochiq maydonchatarda bo'rdoqi qilindi; Ushbu oziqlantirish va saqlash sharoitida aberdin-angus zotining III avlodlari (7/8 qonli) boshqa guruhdagi tengdoshlaridan tirik vazni, oziqa xarajati, tez yetiluvchanligi, go'shtining sifati bo'yicha ustun keldi. Aberdin-angus zotining ijobiy xususiyati va xo'jalik foydali belgilari ko'proq namoyon bo'ldi (5-jadval).

Ikki va uch zotli chatishma go'shtdor novvoslarniyag
18 oyligidagn go'sht mahsuldorligi (U.N.Nosirov, 2010)

Ko'rsatkichlar		Ikki zotli chatishma avlod		Uch zotli chatishma avlod Aberdin-angus 2/4, santagertruda 1/4 mahaaliy qoramol 1/4
		Aberdin-angus 7/8 mahalliy qoramol 1/8 (II avlod)	Aberdin-angus 3/4 mahaaliy qoramol 1/4 (II avlod)	
Tirnk vazni. kg		457,6	427,9	427,4
So'yishdan oldingi vazn, kg		422,0	394,0	390,0
Go'sht nimtalar vazni, kg		231,2	212,2	211,3
Go'sht nimtalar chiqimi. %		54,8	53,8	54,1
Ichki yog'lar vazni. kg		18,5	16,9	16,4
Ichki yog'lar chiqimi, %		4,3	4,3	4,3
So'yim chiqimi, %		59,1	58,1	58,3
Go'sht nimtasi tarkibida	Lahm go'sht va yog chiqimi	82,2	82,4	81,5
	Suyak va pay chiqimi	17,8	18,6	18,5
Go'sht tarkibida,%	Protein chiqimi	20,6	21,0	20,4
	Yog' chiqimi	8,4	8,0	9,9

Yurtimizda chorvachilik muhim sohalardan biri hisoblanadi. Chorvachilik inson uchun eng kerakli oziq-ovqat mahsulotlari - sut, go'sht va tuxum yetishtirib bersa, dehqonchilik uchun noyob organik o'g'it zaxirasini yaratadi. Dehqonchilikda yetishtiriladi-gan beda, dukkakli va boshoqli ekinlar almashlab ekish tizimi tuproq strukturasi yaxshilaydi va unumdorligini oshiradi. Bu insoniyat dehqonchilik tarixi va o'simliklar evolyusiyasida o'z isbotiga egahamda

qator olimlarning (R.Ya. Ioffe, 1930; A.K. Kashkarov, 1959; M.Muxammedjanov, 1983) asarlarida, shuningdek, qadimiy manba «Avesto»da ham ta'kidlangan. Respublikada chorvachilik taraqqiyotiga erishishda mollarning zotdorlik sifatlarini yaxshilash va oziqlantirishni takomillashtirish asosiy omil bo'lgan. Keyingi yuz yillik mobaynida mahsuldor bo'lmagan jaydari mollar sermahsul zot-dor mollarga aylantirildi. Hozirga kelib sigirlarning mahsuldorlik genetik imkoniyatlari 3000-4000 kilogrammga teng. Ularning minimal mikdori 2000 kg bo'lsa, maksimum imkoniyati 9000-10000 kilogrammni tashkil qiladi. Jumladan, sobiq Chinoz naslchilik zavodida «Chyolka» laqabli qora-ola zotli sigir 5-tug'ishida 3,8 foiz yog'likda 10518 kg sut ber-gan. Andijon viloyatining sobiq «Savay» xo'jaligida parvarishlangan «Astra» laqabli shvis zotli sigirning 4 laktasiyadagi sut sog'imi 10270 kg ga yetgan.

Qoramollarning yuqori mahsuldorlik genetik imkoniyatlariga erishilgan bo'lsa-da, aholining yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi sigirlar mahsuldorligi 2-3 baravarga past. 2009 yil davlat statistik ma'lumotlariga ko'ra barcha toifadagi xo'jaliklarda 2008 yili har bir sigirdan 1640 kilogrammdan, jumladan, fermer xo'jaliklarida 925 kilogrammdan sut sog'ib olingan. Respublikada urchitilayotgan 3327 ming bosh sigirga hisoblasak, qo'shimcha 4450 ming tonna sut olish imkoniyati boy berilmoqda. Shu jumladan, fermer xo'jaliklarida 337 ming tonnaga to'g'ri keladi. Zootexniya fanining nazariy asoslari va amaliyot natijalariga ko'ra mollar maxsuldorligini namoyon bo'lishida 60-62 foizgacha oziqlantirish omillari o'z ta'sirini ko'rsatadi (A.P. Ka-lashnikov, 1985; Sh.A. Akmalxanov, 1993).

Respublikada chorvachilik fermer xo'jaliklarini birinchi bor tashkil qilishda kamida 30 shartli chorva moli bo'lishi va ularning har biriga kamida 0,30-0,45 gektardan sug'oriladigan yer maydonlari birlashtirilishi fermer xo'jaliklari to'g'ri-sidagi qonunda belgilangan edi. Ammo hozirga kelib ushbu normativlar rivojlanish talablarini bajara olmayapti. Chunki chorvachilikning naslchilik bazasida urchitilayotgan mollarni sut mahsuldorlik imkoniyati (naslchilik xo'jaliklarida 3500-4000 kg va naslchilik zavodi toifasida 6000-8000 kg) ko'tarilgan. Chorvachilik fermer xo'jaliklarini unumsiz yerlarda tashkil

etilganligini inobatga olsak, 1 gektar yer maydonining hosildorligi 35-40 ozuqa birligiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu ozuqa taminoti (12-13 s) uchta maxsuldor shartli mollarning atigi 30-35 foizinigina talabini qondiradi. Yoki ular 1000 kg atrofida sut berishi mumkin.

Buning ustiga birlashtirilgan yer maydonlaridan foydalanish huquqlarining buzilishi, ya'ni chorvachilik fermer xo'jaliklari yer maydonlarining bir qismida paxta, bug'doy va sabzavotlar ekilishi tufayli ozuqalar bilan ta'minlash yanada tang ahvolda qoldi.

Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mollarning mahsuldorlik genetik potensialidan foydalanish, ozuqa bazasini mustahkamlash va oziqlantirishni takomillashtirishda quyidagi asosiy omillarni ishga solish va qonun bilan mustahkamlash lozim:

* Shartli mollar hisobiga birlashtiriladigan yer maydonlarini mollarning genotipi va mahsuldorlik talablariga qarab belgilash, jumladan, tovar xo'jaliklarida (2500-3000 kg sut beruvchi) 0,50-0,60 gektar, naslchilik xo'jaliklarida (3800-4000 kg sut beruvchi) 0,70-0,80 gektar va naslchilik zavodlarida (5000-7000 kg sut beruvchi) 1,0 gektar;

* Ozuqa bazasi hosildorligini keskin oshirish. Birlashtirilgan yerlarning bonitetiga qarab mahsuldorlikni tovar xo'jaliklarida 60-68 s ozuqa birligiga, naslchilik xo'jaliklarida 65-70 s, naslchilik zavodlarida 80-90 s ozuqa birligiga yetkazish;

* Ozuqabop ekinlarni optimal tizimda joylashtirish, turli to'yimli ozuqalar bilan mollarni ta'minlash va bir xil oziqlantirish turiga o'tkazish. Jumladan, beda maydonlarini 35-40 foizda va ikki marta hosil yetishtiruvchi oraliq ozuqabop ekinlar (donli senajga) va makkajo'xori (silos va donga) maydonlarini 60-65 foizda tashkil etish. Beda pichani, donli senaj, silos va konsentrat tipidagi oziqlantirishni yil davomida tashkil etish;

* Omixta yemlar va shrot bilan mollar ratsionini 30-35 % miqdorida ta'minlash. Har bir shartli mol hisobiga tovar xo'jaliklariga 10-11 sentnerdan, naslchilik xo'jaliklariga 14-15 sentnerdan va naslchilik zavodlariga 24-25 sentnerdan omixta yem va shrot ajratish hamda birja narxida yetkazib berish.

Chorvachilik fermer xo'jaliklaridagi 450 ming shartli molga bir yilda 675 ming tonna omixta yem va shrot talab qilinadi. Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklariga omixta yem va shrotning yetib bormasligi yoki birja narxidan 2,0-2,5 baravar qimmat narxlarda sotilishi xo'jaliklarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, respublikamiz chorvachiligida eng asosiy va yetakchi tarmoq hisoblangan qoramolchilikni rivojlantirish aholini ekologik toza sut va go'sht bilan ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda urchitish uchun rejalashtirilgan 10 ga yaqin qoramol zotlari orasida o'zining bosh soni va sigirlarning sut mahsuldorligi jihatidan qora-ola zot birinchi o'rinda turadi. Ammo bu zot o'zining ayrim xo'jalikka foydali belgilarini takomillashtirishga muhtoj. Bu zootexnikaviy tadbir sof zotli urchitish bilan birga qora-ola zotli sigirlarni chatishtirishda jahon genofondiga xos qora-ola tusli golshtin zotli buqalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Golshtinlashtirilgan buqachalarning go'sht maxsuldorligi va uning shakllanishiga turli xil omillar ta'sirini o'ziga xos iqlim sharoitiga ega bo'lgan Surxon vohasi sharoitida o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani "Toshpo'latov Bahodir Jo'raniyozovich" chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligi sharoitida sof zotli qora-ola va ushbu zot sigirlarini golshtin zotiga mansub buqalar bilan chatishtirishdan olingan turli genotipli chatishma buqachalarda ilmiy ishlab chiqarish tajribasi o'tkazildi. Buning uchun kelib chiqishi, jinsi, yoshi, tirik vazni bilan bir-biriga o'xshash bo'lgan, endi tug'ilgan erkak buzoqlardan har birida 15 boshdan iborat 3 guruhtashkil qilinib, I guruhga sof zotli qora-ola, II guruhga 1/2 qora-ola X 1/2 golshtin, III guruhga 1/4 qora-ola X 3/4 golshtin chatishma hayvonlar kiritildi.

Tajribadagi hayvonlarni oziqlantirish sharoiti jadal bo'lib, ularga asosan xo'jalikning o'zida yetishtirilgan yashil beda, yashil yashil beda, yashil makkajo'xori, makkajo'xori silosi, senaj, xashaki lavlagi, beda pichani, tabiiy o't pichani, paxta sheluxasi va omuxta yem kabi ozuqalar berildi.

Buqachalarning o'sish ko'rsatkichlari tugilganda, 3,6,9,12,15,18,21 oyliklarida har birini alohida-alohida tortib, ularning mutlaq va nisbiy o'sish ko'rsatkichlarini hisoblash orqali o'rganildi.

Ma'lumki, buqachalarning go'sht mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va uning salmog'i hamda sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri ularning tirik vazni hisoblanadi. Bu ko'rsatkich hayvonlarning o'z otalaridan jinsiy hujayra orqali o'tkazilgan irsiy asos genotip va ular yashaydigan tashqi muhitning murakkab harakati natijasida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, hayvon organizmining o'sish va rivojlanishi zigota hosil bo'lgan paytdan boshlanib, butun hayoti davomida irsiy omillar hamda tashqi muhit, ya'ni fenotipik omillar ta'sirida kechadi.

Muayyan irsiy negizga ega bo'lgan organizm uchun qulay fenotipik muhit yaratib berilsagina, u maxsuldorlik bo'yicha o'z genetik imkoniyatini to'liq yuzaga chiqaradi. Shuning uchun ham, tajribadagi hayvonlarni yoshligidan jadal usulda boqib, mo'l-ko'l to'yimli ozuqalar bilan oziqlantirish ularning tirik vazni o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (6-jadval).

6-jadval

Tajribadagi bukdchalarning tirik vazni o'sish ko'rsatkichi, kg ($X + 5_x$)

Yoshi, oylar	P	Guruhlar		
		I	II	III
Tug'ilganda	15	30,0±0,3	32,5±0,5	32,9±0,4
3	12	73,5±1,9	78,5±2,4	80,0±2,9
6	9	120,0±2,1	128,6±1,6	136,5±4,0
9	9	168,5±2,8	182,0±1,8	188,1±2,9
12	9	237,7±4,8	257,9±3,1	265,2±3,1
15	9	310,3±3,4	338,5±3,0	349,2±4,1
18	6	390,7±3,7	427,5±2,4	440,2±2,8
21	3	468,3±4,8	510,1±5,4	528,4±3,8

6-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, buzoqlar tugilganda tirik vazn bo'yicha I guruh buzoqlari o'z tengqurlari Shza III guruhlardagi buzoqlardan gegishlicha 2,3 kg ($R < 0,05$) yoki 7,7 foiz va 2,9 kg ($R < 0,05$) yoki 9,7 foizga orqada qolishgan. Bu holat tajribaning keyingi o'sish davrlarida ham

saqlanib qolgan , chatishma buqachalar sof zotli tengqurlariga qaraganda bir muncha jadal o'sgan. Aytaylik, rasionga sut qo'shib berish davrining oxirida, ya'ni 6 oylik buzoqlarda tirik vazn shunga mos ravishda 120,0; 128,6; 136,5 kg ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, III guruh buzoqlari I va II guruxdagi tengqurlariga nisbatan mutanosib ravishda 16,5 kg ($R < 0,01$) yoki 14,1 foiz va 7,9 kg ($R < 0,05$) yoki 6,1 foiz ustunlikka erishgan. O'sishning keyingi davrida, ya'ni 6-9 oyliklar mobaynida tirik vazn bo'yicha farq chatishma hayvonlar foydasiga tegishli ravishda 13,5 kg ($R < 0,01$) yoki 8,0 foiz va 19,6 kg ($R < 0,01$) yoki 10,8 foizga teng bo'lib, oldingi o'sish davridan biroz kamligi bilan xarakterlangan. Buning sababi o'sish davri kuz va qish orasiga go'gri kelgan bo'lib, rasion tarkibiga ki-ritilgan yem-xashakning to'yimlilik darajasi pastroq bo'lgan, ayniqsa, hazmlanuvchi protein miqdori kam bo'lgan. Bir yoshli buqachalarning genetik kelib chiqishidan qat'iy nazar o'sishi barcha guruhlarda yuqori bo'lgan. Lekin bu davrda ham golshtinlashtirilgan II va III guruh buqachalari I guruxdan mos ravishda 20,2 kg ($R < 0,01$) yoki 8,5 foiz va 27,5 kg ($R < 0,01$) yoki 11,6 foiz yuqori ko'rsatkichga erishgan. Umuman olganda, tajribaning shu oyidan boshlab o'sish ancha jadallashgan. Guruhlararo farq o'sishning 15 va 18 oylarida ham yuqori bo'lgan. Xususan, golshtin bo'yicha qon ulushi 75 % ni tashkil etgan III guruxdagi chatishma buqachalar bu davrlarda I va II guruxlardagi tengqurlaridan tegishli ravishda 38,9 kg ($R < 0,01$) yoki 12,5 foiz 10,7 kg ($R < 0,01$) yoki 3,2 foizga ustun bo'lgan.

Tajriba yakunida, ya'ni 21 oylik buqachalarning tirik vaznini solishtirganda eng yuqori ko'rsatkich III guruxdagi buqachalarda bo'lib, 528,4 kg ni tashkil etgan. Bu esa o'z tengqurlari I guruxdagi buqachalar-dan 60,1 kg ($R < 0,01$) yoki 12,8 foiz va II guruxdagi-lardan esa 18,3 kg ($R < 0,05$) yoki 3,6 foiz ko'p demakdir. II va I guruxlardagi buqachalarning tirik vaz-ni bo'yicha farqi birinchisi foydasiga 41,8 kg ($R < 0,01$) yoki 8,9 foizga teng bo'lgan. Ya'ni ular bu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rinda bo'lishgan.

Tajribadagi buqachalarning mutlaq va nisbiy o'sish ko'rsatkichlari ($X \pm S_x$)

O'sish davrlari, oylar	Guruhlar								
	I			II			III		
	kg	g	%	kg	g	%	kg	g	%
0-3	43,5±0,4	483±5,1	145,0±1,4	46,2±0,5	513±3,9	143,0±6,7	47,1±0,7	523±4,2	143,2±4,1
4-6	46,5±1,3	517±3,9	63,3±0,8	50,1±2,1	557±2,7	63,8±4,1	56,5±1,2	628±4,1	76±1,6
7-9	48,5±0,9	539±4,1	40,4±0,6	53,4±0,9	593±4,1	41,5±0,6	51,6±0,4	573±3,7	37,8±0,7
10-12	69,2±1,4	769±3,9	41,1±1,0	75,9±0,6	843±3,9	41,7±0,4	77,1±0,2	857±4,8	41,0±0,9
13-15	72,6±1,2	807±4,1	30,5±0,8	80,6±0,5	896±4,9	31,2±0,3	84,0±1,1	933±5,8	31,7±0,4
16-18	80,4±2,4	893±5,2	22,7±0,6	89,0±1,2	999±5,7	26,3±0,4	91,0±0,9	1011±6,1	26,1±0,4
19-21	77,6±1,4	862±4,7	19,9±0,4	82,6±1,1	918±4,1	19,3±0,1	88,2±1,4	980±4,9	20,0±0,3

7 -jadval tahlili shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan masalalar bo'yicha sezilarli darajada guruhlararo farq aniqlangan. Dastlabki o'sish davrida, ya'ni tug'ilgandan 3 oyligigacha I guruh buzoqlarining mutloq o'sishi 43,5 kg ni tashkil qilgan, bu esa II guruxdagi tengqurlaridan 2,7 kg ($R < 0,05$) yoki 6,3 foiz va III guruhdan 3,6 kg ($R < 0,05$) yoki 8,3 foiz kam demakdir. Tadqiqotning ikkinchi 90 kunida (4-6 oyda) mutlaqo'sish barcha guruhlarda yuqori bo'lgan. Bu davrda ham sof zotli buqachalar o'z tengdoshlari chatishma hayvonlardan tegishli ravishda 3,6 kg ($R < 0,05$) yoki 7,8 foiz va 10,0 kg ($R < 0,01$) yoki 21,5 foiz orqada qolgan. O'sishning keyingi davrlarida xam deyarli shunday tendensiya kuzatilgan. Ya'ni sof zotli qora-ola buqachalar o'z o'xshashlari chatishma buqachalardan 7-9 oylarda 4,9 kg ($R < 0,05$) yoki 10,0 foiz va 3,4 kg ($R < 0,05$) yoki 6,1 foiz, 10-12 oylarda 6,7 kg ($R < 0,05$) yoki 9,6 foiz va 7,9 kg ($R < 0,05$) yoki 11,4 foiz, 13-15 oylarda 8,0 kg ($R < 0,05$) yoki 11,0 foiz va 11,4 kg ($R < 0,01$) yoki 15,7 foiz 16-18 oylarda 7,6 kg ($R < 0,05$) yoki 9,3 foiz va 9,6 kg ($R < 0,01$) yoki 11,8 foiz hamda 19-21 oylarda 5,0 kg ($R < 0,05$) yoki 6,4 foiz va 10, 6 kg ($R < 0,05$) yoki 13,7 foiz kam tosh bosgan.

Tahlil qilingan jadvallardan shunday xulosa qilish mumkinki, barcha guruhlardagi hayvonlarning o'sishi yosh oshishi bilan ortib borgan, lekin uning jadalligi aynan 13 oyligidan boshlangan va bu holat 18 oylikkacha davom etib, keyingi o'sish davrida biroz sekinlashgan.

O'sish tezligi va nisbiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha ham ishonarli darajada guruhlararo farq kuzatilgan. Bunda golshtin zoti bo'yicha zotdorlik darajasi yuqori bo'lgan III guruh hayvonlari o'z tengqurlari I va II guruhlariga nisbatan ijobiy ko'rsatkichga erishgan.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar oziqlantirish talab darajasida bo'lganda har xil genotipdagi sutbop zotga mansub buqachalarning o'sish ko'rsatkichlari jadal bo'lganligini ko'rsatgan. Bu esa yetarli miqdorda sifati qoramol go'shti ishlab chiqarish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston chorvadorlarining qoramolchilikni rivojlantirish, ayniqsa, go'sht mahsulotlarini yetishtirishda erishgan fan yutuqlari va ilgor tajribalarini alohida ta'kidlash joiz. 1965 yillardan boshlangan tashabbuskor chora-tadbirlarning

amalgaga oshirilishi o'zining ijobiy natijalarini berdi. Go'sht yetishtirishni ixtisoslashtirish, go'shtga mo'ljallangan mollarni jadal parvarishlash va bo'rdoqilashni Respublikaning barcha tumanlarida tashkil etish natijasida mollarning tirik vazni va semizlik kondensiyasi ko'tarilib bordi. Go'shtga so'yilgan qoramollar vazni 1970 yilda o'rtacha 309 kilogramm bo'lgan bo'lsa, 1982 yilda 341 kilogrammga yetgan yoki 10,3 foizga ko'tarilgan. O'zbekistonda bu ko'rsatkich tegishli 268 kilogrammdan 391 kilogrammga yoki 45,9 foizga oshgan. Ayniqsa, yosh mollar va novvoslarni barcha tumanlardagi xo'jaliklararo bo'rdoqichilik korxonalarida go'shtga parvarishlashda ularning tirik vazni 18-21 oyligida qizil zotlar bo'yicha 400-420 kilogrammga, shvis va qora-ola zotlari bo'yicha 450-500 kilogrammga ko'tarilganligi chorvadorlar yutug'idir. Respublikada go'shtga so'yilgan novvoslarning tirik vazni 1965 yili o'rtacha 196 kilogrammni tashkil etgan bo'lsa, 1981 yilda 408 kilogrammga yetgan yoki 212 kilo-gramm qo'shimcha (2,1 baravarga) oshgan. Bu natijalar mollar bosh soni ko'payishi bilan birga gusht yetishtirishni ham jadallashtirdi. Jumladan, go'sht etishtirish hajmi 1965 yili 162 ming tonnadan 1982 yili 378 ming tonnaga ko'tarilgan. O'rtacha yillik ko'tarilish jadalligi 12,7 ming tonnaga yoki 7,8 foizga to'g'ri kelgan. 1981 yilda O'zbekiston chorvadorlari go'shtga so'yiladigan novvoslar vaznini oshirish bo'yicha Sobiq Ittifoq Respublikalari orasida birinchi o'rinlardan joy olgan. 1985 yil-da Toshkentda go'sht yetishtirishning ilgor tajribalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan kengaytirilgan ilmiy-amaliy konferensiya erishilgan yutuqlardan dalolat beradi.

Go'sht yetishtirishni jadallashtirish tendensiyasi keyingi 15-17 yillar mobaynida ham kuzatiladi. 1988 yilda go'sht yetishtirish hajmi so'yilgan vaznda 477,8 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilga kelib bu ko'rsatkich 690,8 ming tonnaga yetdi. Uning ko'tarilish jadalligi mollar bosh sonining dehqon xo'jaliklarida ko'payishi hisobiga to'g'ri kelmoqda. Jami yetishtirilgan go'sht miqdorida qoramol go'shtining salmog'i 60-63 foizgacha ko'tarilgan.

Lekin go'shtga so'yilgan qoramollar tirik vazni 245-248 kilogrammga pasayib borganligi go'sht yetishtirishga salbiy tasir ko'rsatgan. Past vaznli oriq mollarni so'yishga yo'l qo'yilgan. Bu borada Davlat standart talablari va sanitariya-vete-

rinariya qoidalariga rioya qilish susayib bormoqda. Bunday holat hatto Toshkent shahrining Chorsu go'sht bozorida ham kuzatilmoqda. Viloyatlardan turli holatlarda so'yib keltirilgan nisbatan oriq mol go'shtlari bozor binosining o'zida antisanitariya holatida lahm go'sht va suyakka ajratilish holatlarini qanday izohlash mumkin? Aslida, har bir go'shtga mo'ljallangan mol veterinariya ko'rigidan o'tkazilib, so'ngra so'yishga ruxsat etiladi. Go'sht nimtalarini nazoratdan o'tkazishda Davlat standarti talablari asosida mollarning turi va go'sht nimtalarining semizlik kategoriyasi aniqlanib, tegishli tamg'alar bosilishi kerak.

Zootexnik va davlat standarti talablariga ko'ra novvoslarni yuqori vazn va semizlik darajasiga yetkazib, maxsus jihozlangan kushxonalarda so'yish, yuqori sifatli holda bozorga chiqarish va iste'molchilarga yetkazish aynan maqsadga muvofiqdir.

Hozirda oilalar, dehqon va fermer xo'jaliklarida asosan somon bilan oziqlantirish sharoitida mollar maydalashib, semizligi past holatda qolmoqda. Go'sht mahsuldorlik imkoniyatlarining atigi 50-60 foizigina ishga solinmoqda. Natijada yuqori vazn va semizlik darajasiga yetkazilgan ikki bosh novvosdan olinadigan 500-520 kilogramm go'sht uchun hozirgi holatda uchta molni so'yishga to'g'ri kelmoqda. Har uch molning bittasi ortiqcha xarajat qilinmoqda.

Buning asosiy sababi, birinchidan xo'jaliklarda oziqa maydonlarining yetishmasligi, jamg'arilgan oziqalarning kamligi va sifatining pastligi, ikkinchidan, tegishli korxonalar tomonidan to'la qiymatli omuxta yemlarni yetkazib bermaslik, uchinchidan, yosh mollar va novvoslarni jadal parvarishlash, bo'rdoqilash texnologiyalarini joriy etishdagi imkoniyatlarning yo'qligida deb tushunish mumkin.

Keltirilgan muammolarni bartaraf etish va so'yiladigan mollar vaznini genetik imkoniyat darajasiga ko'tarish qoramol go'shti yetishtirish miqdorini 30-35 foizga orttiradi.

O'zbekistonda urchitilayotgan qoramol zotlarining yuqori go'sht mahsuldorligi ilmiy-tadqiqot ishlari va ilg'or tajriba amaliyotida aniqlangan. Respublikamizning turli hududlarida qora-ola, qizil cho'l, bushuyev, shvits, santagertruda, qozoqi oq bosh va aberdin-anguss qoramollari urchitilmoqda.

Qora-ola zotli mollar O'zbekiston-da keng tarqalgan. U o'zining yuqori sut mahsuldorligi, go'shtining sifati va turli iqlim sharoitlariga moslashish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yosh mollar va novvoslar yuqori go'sht mahsuldorligini namoyon etish qobiliyatiga ega. Turli saqlash, oziqlantirish va bo'rdoqilash sharoitlariga xos ravishda ularning go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'zgaradi. Jumladan, axtalangan mollar "Qizil shalola" tajriba xo'jaligida o'rtacha oziqlantirish sharoitlarida parvarish qilinganda 18 oyligida 412 kg tirik vaznga yetgan. Yuqori oziqlantirish me'yorida novvoslar vazni 500 kilogrammga yaqinlashgan, yuqori sifatli so'yim ko'rsatkichlarini namoyon qilgan (8-jadval).

(8-jadval)

Qora –ola zotli novvoslarning yuqori oziqlantirish sharoitlarida go'sht mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Tajriba mualliflari					
	Nortojiyev		Mamajonov		Nam N.S.	
	Novvoslarning yoshi, oy					
	12	18	12	18	12	18
Bo'rdoqidan olinadigan vazn, kg	317,5	484,1	338,7	508,8	356,0	500,1
So'yishdan oldingi vazn, kg	283,3	456,0	326,0	488,8	318,6	470,2
Gusht nimta vazni, kg	143,8	265,1	173,0	276,8	170,3	259,1
Ichki yog'lar vazni, kg	3,5	7,1	5,2	12,1	4,7	14,1
So'iim chikimi, %	52,0	59,7	54,7	59,1	54,9	61,2
Lahm go'shti chikimi, %	4,3	77,7	79,0	80,5	74,1	83,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, go'shtga so'yilgan navvoslar 18 oyligida 500 kilogramm tirik vaznga yetishida muskullar bilan go'lishgan holda yog' to'qimalari bilan qoplangan 260-277 kg vazndagi go'sht nimtalarini shakllantirgan. Lahm go'shti chiqimining 80 foizdan va so'yim chiqimining 59 foizdan oshganligi yuqori semizlikda sifatli go'sht olinganligidan dalolat beradi.

Go'sht kesimining "marmarsimon" ko'rinishi muskullar va uning tolalari atrofida yog' to'qimalarining to'planganligini, uning ta'mi va to'yimligining qanchalik oshganligini ko'rsatadi.

Qora-ola zotli mollarning kam mahsulli bo'lgan qismini sanoat chatishtirish usulida go'shtdor gereford, sharoli, kian va limuzin zotlari bilat chatishtirishdan olingan novvoslarning go'sht mahsuldorligi qo'shimcha 12-18 foizgacha oshadi va go'shtninp sifati yaxshilanadi. Ushbu natijalar O'zbekistonda sinab ko'rilgan va amaliyotga tavsiya etilgan.

Respublika chorvadorlari gomonidan yaratilgan bushuyev zotli novvoslarning tirik vazni yuqori oziqlangirish sharoitlarida 18 ia 21 oyligida 2393, 3008 ozuqa birligi va 477-591 kg hazmlanuvchi proteyin istemol qilishida tegishlicha 477 va 551 kilogrammga yetadi. Udardan yuqori siflati go'sht maxsuloti olinadi (9-jadval)

9-jadval

Bushuyev zotli novvoslarni yuqori me'yorda oziqlantirishda go'sht maqsuldorligining shakllanishi (M.Nortojiyev ma'lumoti bo'yicha)

Ko'rsatkichlar	So'yilgan novvoslarning yoshi, oy			
	12	15	18	21
Bo'rdoqidan olinadigan vazni, kg	33,7	404,9	477,2	551,4
So'yishdan oldingi vazni, kg	307,0	362,0	453,6	533,0
Go'sht nimtalar vazni, kg	159,2	193,3	256,6	318,7
Ichki yog'lar vazni, kg	4,33	7,50	8,86	8,87
So'yim chiqimi, %	53,3	54,9	58,9	61,5
Lahm go'shti chiqimi, %	75,3	76,6	76,7	80,7

Novvoslar 12 oyligidayoq 335 kilogrammli vaznga yetib, so'yilganda 159 kg go'sht beradi. 15 oyligida tegishlicha 405 va 193 kilogrammga. 18 oyligida 477 va 257 kg, 21 oyligida 554 va 319 kilogrammga ko'tariladi. Muskul va yog' to'qimalarining jadal rivojlanishi hisobidan so'yim chiqimi 53 foizdan 61 foizgacha va lahm go'sht chiqimi 75 foizdan 81 foizgacha oshadi, yuqori oifatli go'sht ishlab chiqarishga erishiladi.

Buxoro viloyajda qizil cho'l zotli novvoslar yuqori oziqlantirish me'yorida (2690 ozuqa birligi va 384 kg hazmlanuvchi protein) jadal parvarishlashda 15 oyligida 384 kilogramm vaznga yetib, 203,6 kg go'sht nimtasi bergan. Ichki yog'lar vazni 10,2 ki-logrammni va so'yim chiqimi 56,4 foizni tashkil etgan

(M.Fozilov). Samarqand viloyati bo'rdoqichilik korxonasida 18 oyligiga qadar jadal boqilib (2924-3032 ozuqa birligi va 433-466 kg hazmlanuvchi protein xarajatida) bo'rdoqilgan novvoslarning tirik vazni 465-482 kilogrammga yetgan (Z.To'raqulov). Ushbu zotga mansub mahsuldorligi kam sigirlarni santa-gertruda, gereford, aberdin-anguss va qozoqi oq bosh zotlari bilan sanoat usulida chatishtirishdan olingan avlodlarining go'sht maxsuldorligi qo'shimcha 11-18 foizga ko'tarilgan va sifati yaxshilangan (A.Ro'ziyev, M.Fozilov).

Respublikaning tog'oldi, Amudaryoning quyi oqimi va Orolbo'yi go'shtdor qoramolchilik hududlarida jaydari qoramollarni santa-gertruda, aberdin-anguss va qozoqi oq bosh zotlari bilan chatishtirishdan II,III avlodlar olishda ularning tirik vazni 18-22 oyligida 436-457 kilogrammgacha ko'tarilib, 219-231 kilogrammdan go'sht bergan. Jaidal)i novvoslarnikiga nisbatan tirik vazni 140-150 kg ga (32-33 %) va go'shti 70-86 kilogrammga (34-37 %) oshgan.

Qozoqi oq bosh va santa-gertruda zotli novvoslar 6-8 oyligidan 18 oyligiga qadar ochiq maydonchalarda jadal parvarishlanib, bo'rdoqi qilinganda kunlik vazn o'sishi 980-1071 grammdan tug'ri keldi. So'yilganda go'sht nimtalar vazni 239-317 kilogrammni, so'yim chiqimi 59,7 va 60,1 foizni tashkil qildi.

Shunday qilib, respublikamizda urchitilayotgan qoramol zotlari sifatli go'sht maxsuldorligiga ega. Yuqori oziqlantirish sharoitlarida ularning mahsuldorlik genetik potentsiali namoyon bo'ladi. Bu oziqa bazasini mustahkamlash, to'yimli, shirali, dag'al oziqalar va ayniqsa to'la qiymatli omuxta yemlar bilan ta'minlash asosida jadal parvarishlash va bo'rdoqilash to'xnologiyalarini joriy etishni talab qiladi.

Germaniyada ham barcha zamonaviy uslublardan foydalangan holda qoramollar baholanadi. Keyingi paytlarda seleksiya-naslchilik dasturlariga qoramollarni asrashdagi ahamiyatini aniqlash uchun iqtisodiy xususiyatlari bo'yicha ham baholash talablari kiritilmoqda. Simmental zotli naslli buqalar uchun Germaniyada 1977 yili zotning iqtisodiy umumiy bahosi (ZIUB) ishlab chiqilgan bo'lib, 2002 yildan boshlab sigirlar uchun ham joriy etilgan. Chunki qoramollarning mahsuldorligi, eksteryer xususiyatlari va fiziologik ko'rsatkichlari ulardan olinadigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq.

Simmental zotidan foydalanishda asosiy maqsad sifatida uzoq muddat foydalanish asosida har bir sigirdan o'rtacha 30000 kg dan sut sog'ib olish belgilangan.

Zotning iqtisodiy umumiy bahosi (ZIUB) 2006 yili qayta ko'rib chiqilib, uning tarkibida sigirlarning fiziologik holatiga 44%, mahsuldorligiga — 38%, sut berish tezligiga — 2%, go'sht mahsuldorligiga— 16% ajratilgan. Har bir ko'rsatkichning ichida ular quyidagicha taqsimlanadi: fiziologik holash (44%), mahsuldorli uzoq yashashi — 13,4, pushtdorligi — 6,8, sutning tarkibidagi somatik hujayralarning miqdori — 9,7, tug'ishning oson kechishi 3,7, o'lik tug'ishlar soni — 8,1, chidamliligi — 2,3, maxsuldorligi (38%), sutning tarkibidagi yog' miqdori — 4,4 va sut oqsilining chiqimi — 33,6; go'sht mahsuldorligi (16%), sof o'sish uchun — 7,3, go'sht chiqimi 4,6 ga go'shtning savdo kategoriyasi uchun 4,1.

Bugungi kunda seleksiya-naslchilik ishlarini tashkil etishda eng yaxshi zotning iqtisodiy umumiy baxosini olgan sigirlar 1 -laktasiyasidan so'ng ajratib olinadi va ular ma'lumotlar bazasidan EHM lar asosida bo'lg'usi naslli buqalarning onasi sifatida tanlanadi. So'ngra ular eksteryer va tizimli baholash natijalariga ko'ra yakuniy tanlovdan o'tadilar. Har yili 1,2 mln. bosh sigirning, 1,1 mln. boshi sun'iy urug'lantiriladi. 850 ming boshi aktiv populyasiyalarda jamlangan bo'lib, 30 ming boshi bo'lg'usi naslli buqalarning onasi sifatida tanlanadi va ulardan 6 ming boshi ajratib olinadi. Ajratilgan sigirlar 175 bosh tekshiriladigan buqalarning urug'i bilan sun'iy qochiriladi. Baholash yakuni bilan 30 bosh naslli buqalar tanlanadi va seleksiya jarayonida ishlatiladi. Avlodlarning o'rtasidagi intervalni, ya'ni oraliqni qisqartirish maqsadida homilani ko'chirib o'tkazish va biotexnologiyaning boshqa uslublaridan ham keng foydalaniladi.

Beltsvilldagi Davlat chorvachilik institutidagi Qoramollarni takomillashtirish dasturlari laboratoriyasida tahlik qilindi (Animal Improverment Program Laboratory –AIPL) Bu tizim global axborat tarmog'i orqali bir biri bilan bog'langan, bu esa foydalanuvchilarga (fermerlar, uyushmalar, shtatlarning departamentlari) online rejimida tezkorlik bilan ma'lumotlarni olishga, qishloq xujalik hayvonlarining podalaridagi seleksion holatni o'rganishga imkon beradi va naslli chorvachilikni samaradorligini oshiradi.

Seleksiya ishlarini yushkil etishda ko'plab indekslar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan samarali foydalaniladi. Golshtin zoti bo'yicha assosiasiyalanish talabi bo'yicha naslli buqalani baholashda butun qator davomidagi foyda indeksidan (IPP) ko'proq foydalaniladi. Ushbu indeks naslli buqa urg'ochi avlodlaridan ularning hayoti davomida olingan o'rtacha sof foydani ko'rsatadi.

Malumotlarni olish va uni qayta ishlash uchun malum bir tizim ishlab chiqilishi lozim.

Naslchilik-seleksiya jarayonlarini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak

—seleksiya jarayonlariga kichik va yirik populyatsiyalarni genetik takomillashtirish dinamik boshqaruv tizimi kabi yondashish (tizim har xil tashqi ta'sirlar natijasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga tezkor moslashuvchan bo'lishi kerak);

—seleksiyaning zamonaviy uslublari va texnologiyalarini ishlatish (tizimda kompyuter dasturlarini ishlatish, tizimli modellardan foydalanish va iqtisodiy-matematik uslublarni qo'llash);

-tizim fermer xo'jaliklari rahbarlari, chorvadorlar, naslchilik korxonalarining mutaxassislari va seleksionerlarga qaratilgan bo'lishi lozim (tizim qaror qabul qila oladigan shaxslarga ma'lumotni tushunarli shaklda yetkazishi kerak);

Respublikamizda bugungi sut qoramolchiligida seleksiya-naslchilik ishlarini tashkil etish. Rivojlangan davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalari va uslublardan foydalangan holda chuqur va puxta o'ylangan tizimni yaratish davr talabidir.

Ushbu ishlarni tashkil etish borasida rivojlangan davlatlarning tajribasiga e'shbor bersak, chorvachilik sohasi, ayniqsa, sut qoramolchiligi rivojlangan Yevropa davlatlarida seleksiya-naslchilik ishlarida o'ziga xos tizim yaratilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor mavjud zotlarni takomillashtirishda ularning ichidagi populyasiyalarning irsiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratiladi.

Bu borada juda katta yutuqlarga erishgan fransuz chorvadorlari sut qoramolchilikda ishlatiladigan 8 ta zot bo'yicha ish olib boradilar. Bular: golshtin zoti (2,1 mln. bosh sigir). montbelyard (0,64 mln. bosh), normand (0,48 mln. bosh),

qolganlari — abondans, simmental, qizil-ola, trabant va qo'ng'ir zotlari. Jami 4 mln. bosh sut yo'nalishidagi sigirlar bo'lib, Yevropada ishlab chiqariladigan sutning 18% i Fransiyaga to'g'ri keladi. Har bir zot bo'yicha kompleks seleksiya-naslchilik ishlarining dasturlari ishlab chiqilib, ishlar tizimli amalga oshiriladi. Ushbu dasturlarning asosiy maqsadi har bir zot uchun maxsulot sifatini (yog', oqsil miqdori) va uning miqdorini tenglashtirilgan iqtisodiy koeffitsiyentda birlashtirishdir.

Seleksiya ishlarining asosida ma'lumotlarni hisobga olish yotadi. Fransiya dunyodagi eng birinchilar qatorida 1970 yildan boshlab barcha qoramollarni individual identifikatsiyalash tizimini joriy etgan. Ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning milliy bazasi yaratilishi har bir zotni genetik takomillashtirish dasturlarida iqtisodiy va texnik ko'rsatkichlardan foydalanishga imkon beradi. Har yili 2,6 mln. bosh sigirlarning sut maxsuldorligi nazoratga olinadi va tegishli tahlillar o'tkaziladi, ulardan 1,9 mln. boshi naslchilik kitoblariga kiritilgan va 0,35 mln. boshi morfologik testlardan (gen markerlari va boshqalar) o'tkazilgan.

Bundan tashqari, chorvadorlar seleksiya-naslchilik ishlarida ishlatiladigan naslli buqalarni tanlashga va ularni baholashga e'tibor beradilar.

Barcha tadbirlarning tizimli o'tkazilishi natijasida olingan ma'lumotlar chuqur tahlil qilinadi va har bir zotga talluqli bo'lgan naslli buqalarning nasldorlik qiymati indeksi hisoblanadi. 2007 yilda EMTERBULL (Qoramollarni genetik baholash bo'yicha xalqaro qo'mita) ning o'tkazgan xalqaro baholash natijalariga ko'ra (ISU) bo'yicha samaradorlikning sintetik indeksi) 150 punktdan ko'p baho olgan naslli buqalardan dunyo bo'yicha 152 boshi ajratib olingan. Ushbu buqalarning ichida 52 boshi Fransiyaga, 41 boshi Germaniyaga, 25 boshi AQSH ga, 8 boshi Gollandiyaga, 6 boshi Kanadada va 3 boshi Italiyaga (qolganlari boshqa davlatlarniki) tegishli bo'lgan. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Fransiya sut qoramolchiligida juda katta yutuqlarga erishilmoqda va xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olingan.

Qoramolchilikda tarixiy tajribalarga ega bo'lgan Germaniyada ham bu borada o'rganishga arziydigan ishlar amalga oshirilgan. Nemis chorvadorlarining simmental zotini takomillashtirish borasidagi ishlarini taxlil qilish ayni muddao

Zotning eksteryer va mahouldorlik ko'rsatkichlarini takomillashgirishta (XX asrning boshlarida) asosiy e'tibor sigirlarning tana tuzilishini mustahkamlashga, sut maxsuldorligini oshirishga va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan. Olib borilgan seleksiya-naslchilik ishlari asosida tizimli hisob-kitob ishlarining tashkil etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy urug'lantirishdan samarali foydalanish natijasida 1960 yildan boshlab ushbu zot tarixida yangi davr boshlandi. Bunda sigirlarning maxsuldorligini nazorat qilish, jadal foydalanilgan populyasiyani ko'paytirish, naslli buqa va sigirlarni baholashda zamonaviy uslublardan foydalanish muhim o'rin egallagan. Natijada bugungi kunda qo'sh mahsuldor zot ichida sut yo'nalishidagi qoramollar salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda. Lekin zotning go'shtdorlik xususiyatlari ham to'lig'icha saqlanib qolingan.

2003-2006 yillar davomida viloyatning Toyloq tumanidagi "Chorva-baraka" xo'jaligida o'tkazilgan tajriba mazkur zotni shu jixatdan tadqiq etishga yo'naltirildi. Unda zoti, zotdorligi, jinsi, vazni bir-biriga o'xshash bo'lgan 3 oylik erkak buzoqlar tanlab I guruhga sof zotli qora-ola, II guruhga qora-ola zotli sigirlarni golshtin zoti buqasi bilan chatishtirish natijasida olingan birinchi bo'g'in, III guruhga esa ikkinchi bo'g'in avlodlariga mansub buzoqlar kiritildi. Tajribadagi buzoqlar xo'jalikning o'zida yetishtirilgan ozuqalardan tuzilgan ratsion asosida jadal oziqlantirildi. I guruh buqachalariga 12 oyligigacha 3698,0 oziqa birligi berildi. Bu ularning II guruhdagi tengqurlariga berilgan oziqa birligidan 32,1 va III guruhga berilganidan esa 115,0 kg kamdir. Guruhdagi buqachalar iste'mol qilgan ozuqada hazmlanuvchi protein miqdori 424,1 kg bo'lib, 1 kg ozuqa birligiga o'rtacha 115 gramm dan to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkich II va III guruhlarda mos ravishda 426,4 kg, 116 gramm va 441,0 kg, 188 grammni tashkil qildi. Iste'mol qilingan yem-xashakning 49,6-51,5% ini barcha guruhlarda yashil va shirali ozuqalar tashkil etdi. Omixta yem esa 33,1-35,4% ga teng bo'ldi. Demak, hayvonlarni oziqlantirish sharoiti talab darajasida edi.

Bu esa ularning o'sish ko'rsatkichlari va go'sht maxsuldorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Qoramollar go'sht mahsuldorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan biri ularning tirik vaznidir. Shuni e'tiborga olgan holda tajribadagi hayvonlarning tirik vazni oshishini har bir o'sish davri bo'yicha o'rgandik (10-jadval).

10-jadval

Tajribadagi buqachalar tirik vaznining o'zgarishi, kg ($X \pm 5x$)

Yoshi, oy hisobida	№	Guruhlar		
		I	II	III
3 oylik	10	78.2±2.3	81.9±2.2	85.0±3.0
6 oylik	10	128.7±2.1	137.0±1.6	141.0±3.9
9 oylik	10	172.0±2.6	187.0±1.5	194.2±2.9
12 oylik	10	232.0±1.7	255.0±2.4	263.2±2.2
15 oylik	10	304.0±2.5	335.1±2.0	346.0±2.3
18 oylik	10	390.0±3.6	423.1±1.3	437.2±2.4
21 oylik	5	464.3±3.8	506.1±5.4	521.7±3.7

10-jadval ma'lumotlariga ko'ra, xar xil genotipli 3 oylik buzoqlar tirik vaznining farqi uncha katta emas. Sof zotli qora-ola buzoqlar bu ko'rsatkich bo'yicha binchi va ikkinchi bo'g'in chatishma tengqurlaridan tegishlicha 3,7 kg, (14,7%) va 6,8 kg, (8,7%) orqada qolishdi. Keyingi o'sish davrida golishtin zotining qon ulushi ko'p bo'ldi. III guruh buqachalari jadal o'sishdi. Aytaylik, 6 oylikda tirik vazn bo'yicha farq ular foydasiga 8,3 kg (5,0%) va 12,3 kg (9,6%) ni tashkil etdi. Farqning ishonchlilik darajasi $R > 0.05 - R < 0.01$ ga teng. Tajriba oxirida, ya'ni 21 oyligida 3 guruhdagi chatishma buqachalarning tirik vazni 521.3 kg ga yetib, bu borada 1 guruhdagi tengqurlariga nisbatan 57,0 kg ($R < 0.01$) yoki 12,3% va II guruhdagi tengqurlaridan esa 15,2 kg ($R < 0.05$) yoki 3,0% ga ustunlik qilishdi.

Umuman olganda, 530 kunlik tajriba davomida I guruxdagi sof zotli qora-ola buqachalardan har biri 386,1 kg qo'shimcha tirik vaznga ega bo'lib, tengqurlari 2 guruhdagi buqachalardan 38,1 kg ($R < 0.05$) yoki ,9%, III guruhdagi buqachalardan esa 50,2 kg ($R < 0.01$) yoki 13,0% orqada qolishdi, 1 kg tirik vazn uchun guruhlarda tegishlicha 9,58; 8,79 va 8,74 ozuqa birligi sarflandi. Demak, chatishma hayvonlarda iste'mol qilingan ozuqani mahsulot birligi bilan qoplash xususiyati ham sof zotlilarga nisbatan yaxshi bo'ldi.

Ilmiy-tadqiqot ishi uslubiga binoan tajribadagi buqachalarni 18 21 oyligida har guruhdan 5 boshdan so'yib, ularning go'sht maxsuldorligini o'rgandik (11-jadval).

11-jadval

Tajribadagi hayvonlarning go'sht mahsuldorligi ($X \pm 5x$)
(A.Xushvaqtov)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	18 oylik	21 oylik	18 oylik	21 oylik	18 oylik	21 oylik
So'yishdan oldingi tirik vazni	378,0 \pm 3,1	462,5 \pm 2,1	421,5 \pm 3,41	503,0 \pm 5,1	434,0 \pm 4,1	518,5 \pm 3,9
Nimtalalmagan go'sht og'irligi, kg	205,9 \pm 4,1	247,9 \pm 2,48	22,63 \pm 2,5	270,6 \pm 4,46	233,9 \pm 4,09	285,7 \pm 5,17
Go'sht chiqimi, %	53,2 \pm 1,2	53,6 \pm 1,1	53,7 \pm 0,9	53,8 \pm 0,76	53,9 \pm 1,18	55,1 \pm 0,9
Ichki yog' og'irligi, kg	21,4 \pm 0,18	21,4 \pm 0,18	16,2 \pm 0,02	20,6 \pm 0,01	17,8 \pm 0,01	23,9 \pm 0,04
Ichki yog' chiqimi, %	4,6 \pm 0,01	4,6 \pm 0,01	3,8 \pm 0,01	4,1 \pm 0,01	4,1 \pm 0,01	4,6 \pm 0,01
So'yim og'irligi, kg	222,3 \pm 3,1	269,9 \pm 4,11	242,5 \pm 3,11	291,5 \pm 5,11	251,7 \pm 2,8	309,6 \pm 7,1
So'yim chiqimi, %	57,4 \pm 0,87	58,8 \pm 0,46	57,5 \pm 0,4	57,9 \pm 0,43	58,0 \pm 0,42	59,7 \pm 0,62
Nimtalangan va sovitilgan go'sht og'irligi, kg	103,0 \pm 2,1	124,0 \pm 4,01	113,2 \pm 2,11	135,1 \pm 4,1	116,4 \pm 0,69	143,0 \pm 1,1
Laxm go'sht ogirligi, kg	82,1 \pm 2,01	99,2 \pm 4,0	90,8 \pm 3,12	108,1 \pm 3,11	92,9 \pm 2,41	116,0 \pm 2,18
Suyaklar og'irligi, kg	18,3 \pm 0,09	22,0 \pm 0,1	20,0 \pm 0,08	24,5 \pm 0,13	21,4 \pm 0,13	24,6 \pm 0,07
Iste'mol qilinadigan qismi, %	79,7	80,0	80,2	80,1	79,9	81,1
Iste'mol qilinmaydigan qismi, %	20,3	20,0	19,8	19,9	20,1	48,9
Go'shtdorlik koeffitsiyenti	4,0	4,0	4,1	4,0	4,0	4,3

11-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, barcha guruhlardagi so'yilgan buqachalar har ikkala yoshda ham yuqori semizlik darajasida bo'lgan. 18 oylikda 1 guruhdagi buqachalarning so'yishdan oldingi tirik vazni 387,0 kg ni tashkil etib, tengqurlari II va III guruhlardagi chatishma buqachalarnikidan tegishlicha 34,5 kg ($R < 0,001$) yoki 8,9% va 47,0 kg ($R < 0,001$) yoki 12,1% kam bo'lgan. 21 oylikda bu farq mos ravishda 40,5 kg ($R < 0,01$) yoki 8,8% va 56,0 kg ($R < 0,001$) yoki 12,1 % ni tashkil qilgan.

Go'sht maxsuldorligining muhim ko'rsatkichi nimalangan go'sht og'irligidir. 1 guruhdagi buqachalar ikkala nazorat so'yimi yoshida ham, II va III guruhlardagi tengqurlaridan bu ko'rsatkich buyicha tegishlicha 20,4 kg (9,9%), 22,7 kg (9,2%) va 28,0 kg (13,6%), 37,8 kg (15,2%) ga orqada qolgan. Aniqlangan farq ishonchli bo'lib, $R < 0,05$ 0.001 orasida, II guruhdagi buqachalar III guruhdagi tengdoshlariga nisbatan 18 va 21 oylikda 7,6 kg ($R < 0,05$) yoki 3,3% va 15,1 kg ($R < 0,01$) yoki 5,6% kam go'sht bergan.

Nimalangan va sovitilgan go'shtning og'irligi bo'yicha III; I- III va II –III guruhlardagi farq oxirgi guruh foydasiga tegishlicha 18 oylikda 10,2 kg ($R < 0,01$) yoki 9,9%, 13,4 kg ($R < 0,001$) yoki 13,0%, 3,2 kg ($R < 0,05$) yoki 2,8%, 21 oylikda 11,1 kg ($R < 0,05$) yoki 8,9% , 19,0 kg ($R < 0,01$) yoki 15,3%, 7,9 kg ($R < 0,05$) yoki 5,8% ni tashkil qilgan.

Laxm go'sht miqdori 1 guruhdagi buqachalarda har ikkala so'yimda 82,1 va 99,2 kg bo'lgan, bu II guruhdagi tongqurlarinikidan 8,7 kg ($R < 0,01$) yoki 10,7% va 8,9 kg ($R < 0,05$) yoki 9,0%; III guruhdagidan esa 10,8 kg ($R < 0,001$) yoki 13,2% va 16 1) kg ($R < 0,001$) yoki 16,9% kam. Laxm go'shtning buqachalar yoshiga qarab ko'payishi bo'yicha ham guruhlararo ishonarli darajada farq aniqlangan. Bu ko'rsatkich 1 guruhda 17,1 kg ($R < 0,01$) yoki 20,8%, II guruhda 17,3kg ($R < 0,01$) yoki 19,1% III guruhda 23,1 kg ($R < 0,001$) yoki 24,9% ni tashkil etgan. Oliy va birinchi navli go'sht bo'yicha 18 oylikdan 21 oylikgacha o'sish farqi guruhlarda yegishlicha 12,0 kg (22,6%); 12,6kg (20,1%) va 16,1 kg (26,4%) bo'lgan.

Olingan sof foyda guruhlarda yosh bo'yicha tegishli ravishda 133,0, 179,9, 184,3, 225,5, 194,2 va 236,0 ming so'mni, rentabellik darajasi esa mos ravishda 30,0,31,3,41,2, 38,9,42,4 va 39,8% ni tashkil qilgan.

Ilmiy-tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, Zarafshon vohasi sharoitida qora-ola zoti va uni golshtin zoti bilan chatishtirish natijasida olingan har xil genotipli chatishma avlodlari jadal usulda boqib, burdoqilaganda yuqori tirik vaznga ega bo'lib, sifatli go'sht yetishtirish samaradorligi oshar ekan. Bu esa, nafaqat zootexnikaviy va iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy muammo hisoblangan aholining qoramol go'shtiga bo'lgan ehtiyojini qondirish borasida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlar asosiy hisoblanadi. Qoramol go'shtining asosiy qismi esa aynan sut yo'nalishidagi shu zotlar va ularning chatishma avlodlaridan olinadi.

Mamlakat go'sht resursining asosiy manbalaridan biri qoramollar hisoblanadi, chunki qoramol go'shtining go'sht balansidagi ulushi 65 foizdan yuqoridir. Shuning uchun ham bu mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish agrar sohaning muhim va murakkab muammosi bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki O'zbekistonda qoramol go'shti asosan sut yo'nalishidagi zotlar va ularni o'zaro chatishtirish natijasida olingan chatishma avlodlardan olinadi. Ana shu zotlardan biri qora-ola zotidir.

Tadqiqotlarni o'tkazish uchun Surxandaryo viloyati Qumqo'rgon tumani "Chorvador" fermer xo'jaligining qoramolchilik fermasi sharoitida har qaysiga 10 boshdan 3 guruh tashkil qilingan, 1-guruhga zof zotli qora -ola, I-guruhga zof zotli golshtin, III-guruhga qora -ola zotiga mansub sigirlarni golshtin buqalari bilan chatishtirish natijasida olingan birinchi bo'gin chatishma buqalar kiritilgan. Tajribadagi hayvonlarni oziqlantirish va asrash sharoiti bir xil bo'lgan. Ularga asosan xo'jalikning o'zida yetishtirilgan oziqalar berilgan, faqatgina paxta shuluxasi va shrot Denov moy kombinatidan shartnoma asosida sotib olingan.

Turli zot va zotdorlikka mansub buqalarning go'sht mahsuldorligini o'rganish maqsadida 18 va 21 oylikda nazorat so'yim tashkil qilindi hamda so'yishdan

oldingi tirik vazni, nimalanmagan go'sht og'irligi, ichki yog ogirligi va ularning nisbiy ko'rsatkichlari xisobga olindi (12-jadval).

(12-jadval)

Tajribadagi bukachalarning so'yim ko'rsatkichlari (M.Q.Norboyeva, 2010)

Ko'rsatkichlar	Davrlar oy hisobida					
	18 oylik			21 oylik		
	Guruhlar			Guruhlar		
	I	II	III	I	II	III
So'yishdan oldingi tirik vazni, kg	380,6	398,3	409,4	461,0	479,1	495,2
Nimalanmagan go'sht og'irligi, kg	203,2	214,7	219,8	252,2	265,4	273,3
Ichki yog' og'irligi, kg	14,8	16,3	17,2	19,8	21,1	21,8
So'yim og'irligi, kg	218,0	231,0	237,0	272,0	286,5	295,1
Nimalanmagan go'sht chiqimi, %	53,4	53,9	53,7	54,7	55,4	55,2.
Ichki yog' chiqimi, %	3,9	4,1	4,2	4,3	4,4	4,4
So'yim chiqimi, %	57,3	58,0	57,9	59,0	59,8	59,6

Yuqorida keltirilgan 12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki so'yishdan oldingi tirik vazni bo'yicha 18 oylikda III- guruh buqalari o'z tengqurlari, I va II-guruhlardan tegishlicha 28,8 kg (7,6 %) va 11,1 kg (2,8 %) ziyod ko'rsatkichga erishgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha I va II- guruhlarning farqi oxirgi foydasiga 17,7 kg (4,7 %) ni tashkil qilgan. Nimalanmagan go'sht og'irligi III-guruhda 219,8 kg ga teng bo'lib, I-guruhdan 16,6 kg (8,2%), II-guruhdan esa 5,1 kg (2,4 %) ortiq bo'lgan. Ichki yog' va so'yim og'irligi bo'yicha farq shunga mos ravishda 2,4 kg (16,2%), 0,9 kg (5,5 %) va 19,0 kg (8,7 %), 6,0 kg (2,6%) ga teng bo'lgan.

Mutloq ko'rsatkichlar bo'yicha farq mutanosib ravishda nisbiy ko'rsatkichlarda ham aniqlangan. Bu yerda ham II-guruh hayvonlari oraliq o'rinni egallashgan.

Ma'lumki, qoramollarda yosh o'sishi bilan muskul to'qimalarning o'sishi sekinlashib, aksincha yog' tuqimalarining o'sishi jadallashadi. Buni bizning tajribamiz ma'lumotlaridan ham bilsa bo'ladi. 18 oylikka nisbatan 21 oylikda ichki

yog' og'irligi guruhlarda mutanosib tarzda 5,0 kg yoki 33,8 % ga ko'paygan. Ko'rinib turibdiki, yog' to'qimalarining o'sish jadalligi sof zotli buqalarda biroz ustun bo'lgan.

Buqachalarning go'sht mahsuldorligini baholaganda so'yim og'irligi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bizning tajribamizda so'yim og'irligi yosh bo'yicha o'zgarib borgan va 21 oylikda, 18 oylikka nisbatan guruhlarda tegishli 54,0 kg yoki 24,8 %, 55,5 kg yoki 24,0 % va 58,1 kg yoki 24,5 % ga ko'paygan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham III-guruh buqachalari o'z tengqurlari I -va II- guruhlarini mos ravishda 23,1 kg yoki 8,4 % va 8,6 kg yoki 3,0 % orqada qoldirishgan. I va II-guruhlarning farqi oxirgisi foydasiga 14,5 kg yoki 5,3 % ni tashkil qilgan. So'yim chiqimi bo'yicha ham ustunlik 21 oylikdagi nazorat so'yimda kuzatilgan, 59,6 foizga teng bo'lgan.

Shunday qilib, sut yo'nalishidagi zotlarga mansub qora-ola, golshtin hamda ularni o'zaro chatishtirishdan olingan chatishma buqachalarni jadal usulda boqqanda yuqori og'irlikka ega bo'lgan go'sht mahsuldorligi olingan. Bunda chatishma avlodlar ustunlik qilishgan. Bu esa ularda oz bo'lsada geterozis xodisasi namoyon bo'lganligidan dalolat beradi.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda va Respublikamizda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarni tahlilidan shunday fikrga kelish mumkinki. Aholi turmush farovonligi uchun muhim bo'lgan va go'sht balansida dunyoda cho'chqa va parranda go'shtidan keyin uchinchi o'rinda bo'lgan qoramol go'shti ishlab chiqarishni bugungi kun talabi asosida jadallashtirish uchun: qoramollarning rejali bo'lgan zotlarini bosh sonini ko'paytirish, dehqon, aholi va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga qaraganda fermer xo'jaliklarida urchitishni ko'paytirishga erishish; zot, zotdorlik tizimini va oilasini yaxshilash, maxsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish, maxsuldorlikka shu jumladan: qoramollarning go'sht mahsuldorligiga tasir qiladigan turli hil omillar jumladan, oziqlantirish masalalarini to'g'ri va aniq tashkil etish, oзуqalar ratsioni sifatiga asosiy etibor ko'rsatish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari Respublikamizda urchitilayotgan qoramol zotlari xo'jalik toifasidan qat'iy nazar katta rayonlashtirishni ko'rib chiqish, maxsus go'sht

yo'nalishidagi qozoqi oq bosh, aberdin-anguss, santa gertruda va gereford kabi go'sht yo'nalishidagi rejali hisoblangan qoramol zotlarini sof holda urchitishni tiklash. Sharoit mavjud bo'lgan tuman va xo'jaliklarda ushbu zooveterinariya tadbirlarini zudlik bilan amalgam oshirish zarur ekan. Bundan tashqari yana shuni ham alohida takidlash lozimki mamlakatimizda olib borilayotgan agrar sohadagi islohatlar, qaror va farmonlarni bajarilishini to'g'ri tashkil etish. Chorvachilikning go'sht ishlab chiqarish sohasiga chet ellardan investitsiyalar shaklidagi yangi fan yutiqlari va texnologiyalarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega.

V. Mavzuni yechimidan kutilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Bitiruvchi bakalavriyat har bir tashkil qilingan ilmiy ishlab chiqarish tajribalarining natijalari va bitiruv malakaviy ish referativ xarakterga ega bo'lgan taqdirda ilmiy uslubiy manbalardagi ma'lumotlarni tahlil qilib uning iqtisodiy samaradorligiga ham e'tibor berilishi lozim. Bu masala ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida juda muhim hisoblanadi. Chunki har qanday ishlab chiqarish va maxsulotni qayta ishlash jarayoni nafaqat zootexnikaviy balki iqtisodiy tomondan ham tahlil qilinishi yoki baholanishi zarur. Aks holda u yoki bu ishlab chiqarish jarayoniga aniq va obektiv baho berib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham chorvachilik va uning asosiy tarmog'i hisoblangan qoramolchilikda u yoki bu ishlab chiqarish jarayoni baholanganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: mavzuning dolzarbligi, muhimligi, sohani barqaror rivojlantirishda tutgan o'rni, iqtisodiy ijtimoiy masalalarni yaxshilashdagi ahamiyati va xokazo.

Bizning bitiruv malakaviy ishimiz qoramol go'shti ishlab chiqarishni jadallashtirishga qaratilganligi uchun, bunda maxsulot ishlab chiqarishga sarflangan bevosita xarajatlar, yani ishchilarga, chorvadorlarga, soha mutaxassislariga ish haqi samog'i hamda hayvonlardan maxsulot olish uchun yem-xashakka sarflangan xarajatlar. Bevosita xarajatlardan tashqari bilvosita xarajatlar yani molxona, chorvachilik inshootlari, undagi uskuna, mexanizm, avto ulov va transportlarning amortizatsiyasi, elektr energiyasi, yoqilg'i maxsulotlari,

veterinariya dori darmonlari, vositalar, suniy urug'lantirish va boshqa zooveterinariya va naslchilik tadbirlariga sarflangan xarajatlarni tashkil qiladi.

Tarmoqning u yoki bu jarayoniga xususan qoramol go'shti ishlab chiqarishga qilingan jami xarajatlar va maxsulotni sotishdan olingan yalpi daromad orasidagi farqga qarab iqtisodiy samaradorlik aniqlanadi. Bizning bitiruv malakaviy ishimizning IV bobiga tahlil qilingan ilmiy tadqiqot ishlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan.

-U.N.Nosirovning takidlashicha sof holda urchitilganda yuqori iqtisodiy ko'rsatkichni maxsus go'sht yo'nalishidagi santa-gertruda zotli hayvonlar bergan. Bundan tashqari ushbu zotni mahalliy qoramollar bilan chatishtirishdan olingan birinchi bo'g'in avlod buqalari o'z tengqurlari qozoqi oq bosh va aberdin-anguss bilan olingan avlodlardan tegishli ravishda 7-10% yuqori rentabillik darajasiga ega bo'lgan.

-Z.T.To'raqulov santa-gertruda, qozoqi oq bosh, aberdin-anguss kabi qoramol zotlarini buqachalarini 15 va 18 oyligigacha jadal uslda boqib ularning go'sht maxsuldorligini sutbop zotlar qora-ola, qizil cho'l va bushuyevlarning buqachalari bilan taqqoslab o'rganganda 15 oylikda go'shtbop zotlarning rentabillik darajasi tegishlicha 59,7; 56,9; 69 % bo'lganligini kuzatgan, bu ko'rsatkich sutbop zotlarda 57,8; 55,5; 50,3 % ni tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki aberdin-anguss buqachalarini iqtisodiy samaradorligi mutanosib tarzda o'z tengqurlaridan 11,2; 13,5; 18,7; 9,7;12,1 % ga yuqori bo'lgan. 18 oylik go'shtbop zotlarni rentabillik darajasi tegishlicha 90,7; 91,3; 104,3% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich sutbop zotlarda 84,8; 86,7; 87,8 % ni tashkil qilgan. Bu so'yish vaznidagi farq go'shtbop zot aberdin-angus foydasiga shunga mos tarzda 19,5; 17,6; 16,5; 13,6; 13,0 % gat eng bo'lgan. 1 sentner tirik vazn uchun 15 va 18 oylikda sutbop va go'shtbop zotlarda tegishlicha 6,3; 6,5; 6,4; 6,6; 6,3; 6,6 va 5,2; 5,5; 5,4; 5,2; 5,1; 5,3 odam soat sarflangan.

-P.S.Sobirov santa-gertruda, qozoqi oq bosh, gereford kabi go'sht yo'nalishidagi zotlarni mahalliy yaxshilangan zotlar bilan chatishtirib olingan avlodlarni iqtisodiy ko'rsatkichlari 18,21,24 oyligida aniqlab tegishlicha quyidagi ko'rsatkichlarni olgan. I guruh 188,7; 185,5; 179,5; II guruh 187,6; 182,7; 177,3;

III guruhda 184,7; 180,0; 175,6. ko'rinib turibdiki iqtisodiy samaradorligi barcha so'yim yoshlarida III guruh buqachalarida kuzatilgan. Eng yuqori ko'rsatkich esa I guruhga yani santa-gertruda avlodlarida aniqlangan.

-A.K.Kaxarov o'zining o'tkazgan ilmiy tadqiqot ishlarini iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib quyidagicha xulosaga kelgan: barcha maxsuldorlik yo'nalishidagi buqachalarning 15 oylikda 1 kg semirishi uchun sarflangan ozuqasi ham o'rtacha 7,7-9,2 kg ozuqa birligini tashkil qilgan. Yosh oshishi bilan ko'rsatkich ham oshgan. Xususan sutbop zotlarda 9,9-10,4 qo'shaloq maxsuldor zotlarda 10,3-10,6 mahalliy qoramollarda 11,7 va chatishtirish natijasida olingan chatishma hayvonlarda 9,6-10,1 ozuqa birligiga teng bo'lgan. Rentabillik darajasi 15 oylikda 36,6 bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 24 oylik buqachalarda 97,8 % ni tashkil qilgan.

-Sh.A.Karimov ham o'z tajribalarida qo'sh maxsuldor shvits buqachalarni 21 oylikkacha jadal uslda boqish qora-oladan iqtisodiy jihatdan ustun ekanligini aniqlab, ularning go'shtga boqilgan buqa va urg'ochi tanalarini rentabillik darajasi mos ravishda; 32,5; 29,9; 24,5; 21,7% bo'lganligini takidlangan. Huddi shuningdek A.A.Hushvaqtov sof zotli qora-ola va shu zot sigirlarini golishtin buqalari bilan chatishtirish natijasida olingan buqachalarni 18 va 21 oylikda samaradorlik darjasini shunga mos ravishda 30,0; 41,2; 42,4 va 31,3; 38,9; 39,8 %bo'lganligi kuzatilgan. Aynan shunga o'xshash ko'rsatkichni B.Toshpo'latov va M.K.Norboyevalar ham o'z tajribalarida aniqlagan va sof zotiga nisbatan chatishma avlodlarni ustunligini takidlashgan.

Shunday qilib qoramol go'shti ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni sifatini yaxshilashda hayvonlarni nafaqat zootexnikaviy jixatdan balki iqtisodiy jihatdan ham tahlil qilish lozim ekan. Maxsus go'sht yo'nalishidagi zot buqachalarini qo'sh maxsuldor va sut yo'nalishdagi zotlardan ham samarali bo'lib kam xarajat talab qilib ko'p samara berar ekan.

VI. Mavzuni qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlarda o'qitish uslubi.

Mamlakatimizda istiqloqlga erishgan kunlardan oq xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan ta'lim sohasida ham chuqur tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy islohatlar o'tkazildi va bu muhim ijtimoiy jarayon bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Shuni takidlash lozimki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda tizim va iqtisodiy boshqarish shakli o'zgardi, bir so'z bilan aytganda bozor iqtisodiyotiga o'tildi. Bu esa mamlakatimiz xalq xo'jaligining 150 ga yaqin yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarga yangicha, jahon andozalari talabiga mos keladigan kadr tayyorlashni taqazo etdi. Shuni nazarda tutgan yurtboshimiz I.A.Karimovning tashabbuskor harakatlari asosida 1997 yilda sohani takomillashtirish va uni bozor iqtisodiyotiga moslashtirish maqsadida "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" kabi qo'shaloq davlat qonunlarini qabul qildi.

Oliy talim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora –tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.

Oliy talim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustaxkamlash va modernizatsiyalash ularni zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriya jixozlari bilan taminlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklari muvofiqlashtirish, talim standartlarini takomillashtirish hisobiga talim jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitish shakillarini joriy etish, o'qituvchi kadrlar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy malumotga ega mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida: Oliy talim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha dastur qabul qilinsin (O'z Res Prezidenti I.A.Karimov. Toshkent. 2011. 20 may)

Ushbu qonunlarda ko'rsatilganidek biz uzluksiz talim tizimiga o'tdik; maktabgacha talim, boshlang'ich talim, to'liqsiz o'rta talim bular 9 sinf bilan tugab

undan keyingi ta'lim ixtiyoriy majburiy bo'lib, akademik litseyga va biror bir sohadagi kasb-hunar kollejdagi ta'lim bu uch yildan iborat. Shundan keyin oily ta'lim boshlanadi. Oily talim ham ikki bosqichli bo'lib bakalavriyat va magistraturaga bo'linadi. Keyingi talim ham ikki bosqichli bo'lib, aspirantura va doktoranturalarga bo'linadi. Albatta bu holat zamon talabiga binoan o'zgarib boraveradi. Bulardan tashqari mustaqil talim (asosan ijodiy faoliyatga oid), qayta tayyorlash va malakani oshirish (har xil muddatda yani 3 oydan 1 yilgacha) kabi talim hillari mavjud. Bir so'z bilan aytganda O'zbekistondagi talim sistemasi jahon andozalari talablariga mos keladi. Shuning uchun ham MDH mamlakatlari ham shu tizimga o'tmoqda yani O'zbekistondan bu borada andoza olishmoqda. Hatto Rossiya Federatsiyasi ham bakalavriyat va magistraturaga o'ta boshladi yani oily talim ularda ham ikki bosqichli bo'lyadi. Mamlakatda talim tizimida qabul qilingan davlat qonunlariga belgilangan istiqboldagi tadbirlarga asta-sekin o'tilmoqda. Yaqinda hukumat qarori bilan aspirantura, doktorantura kabi oily talimdan keyingi talim shakllari ham takomillshdi, bu borada ham butun dunyo rivojlangan mamlakatlari kabi ilmiy daraja olish uchun bir marta desertatsiya himoya qilinadi va "fan doktori" ilmiy darajasini oladi. Shaxsning keyingi ilmiy-pedagogik faoliyatining samaradorligiga qarab professor ilmiy unvoni beriladi.

Qabul qilingan qonunlari va hukumat qarorlariga binoan kadrlar tayyorlash tizimiga ko'pgina tarkibiy va tashkiliy o'zgarishlar ham bo'ldi. Ilgari o'rta maxsus bilimga ega bo'lgan kadrlar tayyorlanadigan texnikumlar va kasb hunarlarga o'rgatadigan maxsus bilim yurtlari kollej va akademik litseylarga aylantirildi. To'liqsiz o'rta maktabdan keyin bir qisim o'quvchilar ham bilim ham kasb hunar o'rganish uchun kollejlarda o'qushni davom ettiradi. Ana shunday o'quv yurtlariga kasb hunar o'rgatish va maxsus fanlarni o'qitish maqsadida pedagoglar armiyasini tayyorlash muammosi paydo bo'ldi. Bu muammoni yechish maqsadida o'quv-uslubiy manbasi mavjud bo'lgan oily o'quv yurtlarida kasb talim yo'nalishlari tashkil etildi.

Kasb talim yo'nalishi (zootexniya) yo'nalishi ham aynan ana shu yo'nalishlardan biri hisoblanib, qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejalrining

chorvachilik, veterinariya va fermer xo'jaligini boshqarish bo'limlari talabalariga mutaxassislik fanlarida dars berishadi va chorvachilikka oid kasblarni o'rgatadi.

Ushbu yo'nalish bitiruvchilari kelajakda qishloq xo'jalik kollejlari pedagogik faoliyatlari davomida quyidagi asosiy masalalarga etiborini qaratishi lozim;

-chorvachilikni qishloq va umuman xalq xo'jaligidagi o'rni, ichki daromadga qo'shgan ulushi;

-barcha turga xos bo'lgan qishloq xo'jalik hayvonlari va qoramollarini zoologik sistemadagi o'rni, ularni xonakilashtirish va evolyutsiyasi;

-barcha turga mansub bo'lgan hayvon va parrandalarning hayvonot dunyosidagi o'rni va biologik xususiyatlari;

-qishloq xo'jalik kollejlari chorvachilikka oid fanlarni umumiy va xususiy guruhlarga bo'lib o'rganish. Umumiy zootexniyaga hayvon va parrandalarni oziqlantirish, gigiena va sanitariya, qishloq xo'jalik hayvonlarini urexitish asoslari va ularning seleksiyasi, veterinariya akusherligi va suniy urug'lantirish kabi fanlar kirsa, xususiy zootexniya tarkibiga qoramolchilik, qo'y va echkichilik, parrandachilik, yilqichilik va tuyachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi fanlar kiradi. Bu masalalar o'qitilganda ularni boshqa biologik, seleksion, texnologik va iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligiga ham to'xtalib o'tish maqsadga mofiq hisoblanadi.

-qoramol go'shti ishlab chiqarishni jadallashtirish mavzusini o'qitganda quyidagilarga etibor berish muhimdir: qoramolarning maxsuldorlik bo'yicha klassifikatsiyalari va ularga mansub bo'lgan zotlar: mamlakatimizning o'ziga xos iqlim sharoitida urchitish asoslari, mamlakatda aholi extiyoji uchun ishlab chiqarilayotgan go'sht maxsulotining umumiy salmog'ida zotlarning ulushi; qoramol go'shti yetishtirishni jadallashtirishda tasir etuvchi omillar; qoramolarning go'sht maxsuldorligi bo'yicha baholanganda qanday ko'rsatkichlar ularni so'ymasdan va qanday ko'rsatkichlar so'ygandan keyin etiborga olinadi, qoramol go'shti ishlab chiqarishni iqtisodiy ko'rsatkichlari.

-ushbu mavzuni qishloq xo'jalik kollejlari o'qitishni samaradorligini oshirish maqsadida nazariy va amaliy jihatlarini ham o'quv rejaga kiritish lozim.

Pedagogik texnologiyalar haqida qisqacha tushuncha

Pedagogik texnologiya - bu, ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va ko'llashning tizimli usulidir (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarning ruyobga chiqishi uchun foydalaniladigan shaxsiy, uskunaviy vositalarnyng tizimli majmuasini va faoliyat ko'rsatish tartibini bildiradi (M.V.Klarin, 1989).

Pedagogik texnologiya - bu, o'qituvchining ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda va ma'lum ketma -ketlikda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllantirish jarayonidir (N.S.Saidaxmedov, 2000).

«Texnologiya» - yunoncha «techne» (mahorat, san'at) va «logos» (tushuncha, o'rganish) so'zlaridan olingan.

Demak, texnologiya - hunar, san'at ma'nosini bildiradi va jarayonlarni amalga oshirish usullari hamda vositalari hakidagi bilimlar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirsak, pedagogik texnologiya - eng zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim olish sifatini yaxshilash, talab etilgan bilim darajasiga erishishi uchun ta'lim jarayonini oldindan loyihalashtirishdan iborat deb tushunish mumkin.

Shu o'rinda interfaol o'qitish nima degan savol tug'iladi. «Interfaol», «interaktiv» so'zlari inglizcha «inter» - o'zaro, ichki, «ast» - harakat qilmoq, ta'sir qilmoq so'zlaridan tashkil topgan.

Interfaol o'qitish - bu o'zuvchi va o'qituvchining o'zaro ta'sirlashishiga, o'quvchining o'qitish muhiti bilan faol ta'sirlashishiga asoslangan muhitdir.

Yangi pedagogik texnologiya usullariga aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, muloqot treningi, FSMU texnologiyasi, blits o'yin, bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun, ajurli arra, dumaloq stol, klaster, ruchka stol ustida, rotatsiya, qor bo'ron, sindikat, akvarium, raqamli, skarabey, veyyer, zigzak, mojaro, munozara, menyu, tarmoqlar, davra suhbatlari metodlari kiradi.


TA'LIM TEXNOLOGIYASI MODELI VA TEXNOLOGIK XARITASI

<u>Vaqt - 2 soat</u>	<u>Talabalar soni – 20-25</u>
<u>O'quv mashg'ulotning shakli va turi</u>	Ma'ruza: Qoramol go'shti ishlab chiqarishni jadallashtirish yo'llari va mavzuni o'qitish uslubi
<u>Ma'ruza rejasi</u>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qoramollarning o'ziga xos biologik xususiyatlari. 2. Dunyo va Respublika go'sht balansida qoramol go'shtining o'rni 3. Qoramol go'shti yetishtirishni jadallashtirishda zotlardan foydalanish 4. Go'shtning miqdor va sifat ko'rsatkichlari.
<u>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</u>	Aholi turmush tarzini yanada takomillashtirishda va oziq ovqat xavfsizligini taminlashda muhim o'rin tutgan qoramol go'shtining ahamiyatini tushuntirish hamda qoramol go'shti ishlab chiqarishda go'sht sifatini va miqdorini ko'paytirish.
<u>Pedagogik vazifalar:</u>	<u>O'quv faoliyat natijalari:</u>
Qoramollarning o'ziga xos biologik xususiyatlari.	Qoramollarning dunyo chorvachiligidagi o'rni, ularning xo'jalikka foydali belgilari va o'ziga xos biologik xususiyatlari to'grisida tushunchalar berish.
Dunyo va Respublika go'sht balansida qoramol go'shtining o'rni	Malumki inson organizmi normal biologik, fiziologik, biokimyoviy jarayonlar kechishi uchun 1 yilda o'rtacha istemol qilinadigan go'sht miqdori, go'sht qoramolchiligining holati, rivojlanish istiqbollari va g'sht ichlab chiqarishni jadallashtirish uchun o'tkaziladigan tadbirlar haqida malumotlar berish.
Qoramol go'shti yetishtirishni jadallashtirishda zotlardan foydalanish	Qoramollarning go'sht yonalishidagi zotlarini iqlimlashtirish, go'sht ishlab chiqarishda sut va qo'sh maxsuldor yo'nalishdagi zotlar va duragaylardan foydalanish, go'sht maxsuldorligi bilan bog'liq bo'lgan miqdor va sifat belgilari va ularni naslga berilishidan foydalanishni tushuntirish
Go'shtning miqdor va sifat ko'rsatkichlari.	Go'shtning miqdor va sifat ko'rsatkichlariga tasir qiluvchi omillar, so'yim chiqimi, so'yim vazni, go'shtdorlik ko'fissenti, nimtaning morfologik tarkibi, qoramol go'shtining sifat andozalari, 1, 2, 3 navga kiruvchi go'sht nimalari, go'shtning ozuqaviy qiymati, go'shtning kimyoviy tarkibini tushuntirish
<u>Ta'lim usullari</u>	Ma'ruza, aqliy xujum, klaster, B-B-B strategiyasi
<u>Ta'limni tashkillashtirish shakli</u>	Ommaviy, jamoaviy, guruhli
<u>Ta'lim vositalari</u>	Ma'ruza matni, doska, ko'rgazmali materiallar
<u>Ta'lim berish sharoiti</u>	Auditoriya
<u>Monitoring va baholash</u>	Og'zaki nazorat: savol-javob, Klasterni bajarish bo'yicha nazorat topshirig'i.

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

